



UZOQ MUDDATLI HAMKORLIKNING UMUMMINTAQAVIY AHAMIYATGA EGA USTUVOR YO‘NALISHLARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Germaniya Federal Kansleri Olaf Sholsning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan Berlin shahriga bordi.



Davlatimiz rahbari Germaniyaga amaliy tashrfi doirasida 29-sentabr kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtayn-mayer bilan uchrashuvida ishtirok etdi.

Tadbirda Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov ham qatnashdi.

Uchrashuvda konstruktiv siyosiy muloqotni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Mintaqaviy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni, shu jumladan, Yevropa Ittifoqi dasturlari doirasida ta‘minlashning dolzarb jihatlari yuzasidan fikr almashildi.

Davlatimiz rahbari o‘z so‘zida “Markaziy Osiyo — Germaniya” formatidagi hamkorlik istiqbollariga alohida to‘xtaldi. Amaliy hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlariga, eng avvalo, yuksak texnologiyalar va innovatsion rivojlanish, transport kommunikatsiyalari, “yashil” energetika, kasbiy ta‘lim, faol madaniy va akademik almashinuvlarga alohida e‘tibor qaratildi.

Germaniyaning yetakchi kompaniya va banklari O‘zbekistondagi faoliyatini kengaytirayotgani katta mamnuniat bilan qayd etildi. Yoshlarimizda nemis tiliga qiziqish ortib borayotgani ta’kidlandi — bugungi kunda yurtimizda uni qariyb 300 ming nafar maktab o‘quvchilari va talabalar o‘rganmoqda.

Suhbatda Germaniya Federal Prezidenti O‘zbekiston yetakchisini Berlin shahridagi dunyoga mashhur Jeyms Simon gale-reyasida noyob madaniy-tarixiy ko‘rgazma muvaffaqiyatli o‘tkazilgani bilan tabriklandi. Bir necha oy ichida ko‘rgazmaga 200 ming nafar berlinliklar va Germaniya poytaxti mehmonlari tashrif buyurdi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning ikki tomonlama uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston bilan Germaniya o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni, eng avvalo, innovatsiya va texnologiyalar, “yashil” iqtisodiyot, muqobil energetika, transport va logistika, ta‘lim va madaniyat sohalarida rivojlanishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Joriy yil may oyida Germaniyaga amaliy tashrif davomida o‘tkazilgan sermahsul

muzokaralarda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo‘yicha birgalikdagi sa‘y-harakatlarni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Prezidentlar mintaqaviy kun tartibi yuzasidan ham fikr almashdilar, jumladan, “Markaziy Osiyo — Germaniya” formatida amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhimligini ta’kidladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Germaniya Federativ Respublikasi Federal Kansleri Olaf Shols raisligida o‘tgan Markaziy Osiyo mamlakatlari va Germaniya yetakchilarining birinchi sammitida ishtirok etdi.

Tadbirda Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov ham qatnashdi.

Sammit kun tartibiga muvofiq, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish, “yashil” energetikani rivojlantirish va iqlim o‘zgarishlariga moslashish istiqbollarini, tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari hamda barqaror va izchil mintaqaviy taraqqiyotni ta’min-

lash borasida birgalikdagi sa‘y-harakatlar muhokama qilindi.

Tadbir ishtirokchilari “Markaziy Osiyo — Germaniya” formati ochiq muloqot hamda mintaq mamlakatlari va Germaniya o‘rtasidagi hamkorlikning yangi kun tartibini shakllantirish uchun samarali maydonga aylanganini ta’kidladilar.

Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoda bugungi mintaqaviy hamkorlik darajasiga yuksak baho berib, O‘zbekiston yaxshi shakllantirish uchun samarali maydonga aylanganini ta’kidladilar.

Mintaqa mamlakatlari mustaqillikning ilk kunlaridanoq amaliy ko‘mak ko‘rsatishda Germaniya muhim o‘rin tutib kelayotgani yuqori baholandi.

Ta’kidlanganidek, bugun mamlakatimiz muhim transformatsiya bosqichida turibdi, Yangi O‘zbekiston — inson manfaatlari oliy qadriyat bo‘lgan demokratik davlatni barpo etish yo‘lidan bormoqda. Mamlakatimizni 2030-yilga qadar rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiya qabul qilingan va undagi yuksak maqsadlar xalqaro hamkorlarning salohiyatini jalb qilish orqali amalga oshiriladi.

Uzoq muddatli hamkorlikning umum-mintaqaviy ahamiyatga ega ustuvor yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tiladi.

Bular — investitsiyaviy, innovatsiyaviy va texnologik aloqalar va almashinuvni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy qilish, xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, transport-kommunikatsiyaviy o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish, “yashil” kun tartibini ilgari surish, Germaniya standartlariga muvofiq turli tarmoqlar uchun mutaxassislarni tayyorlash, Afg‘oniston aholisiga gumanitar yordam ko‘rsatish.

Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilari Germaniya tomonining Markaziy Osiyo va Germaniya o‘rtasida strategik mintaqaviy sheriklikni yo‘lga qo‘yish, ushbu formatda muntazam uchrashuv va maslahatlashuvlar o‘tkazib borish taklifini qo‘lab-quvvatladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev birinchi “Markaziy Osiyo — Germaniya” sammiti doirasida Germaniya Federativ Respublikasi Kansleri Olaf Shols bilan muzokara o‘tkazdi.

Ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb jihatlari ko‘rib chiqildi, O‘zbekiston bilan Germaniya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Ishbilarmonlik sohasidagi sheriklikni kengaytirish, iqtisodiyot, investitsiya, transport, energetika va boshqa sohalarida

kooperatsiyani chuqurlashtirishga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston rahbarining joriy yil may oyidagi Berlinga tashrfi ikki tomonlama munosabatlarni faollashtirishga kuchli sur‘at bag‘ishlagani ta’kidlandi.

Keyingi yillarda tovar ayirboshlash va sanoat kooperatsiyasi ko‘rsatkichlari ikki barobar o‘sdi. Mamlakatimizda Germaniyaning “Volkswagen”, “MAN”, “CLAAS”, “Siemens”, “Linde”, “Aurubis”, “Henkel”, “Knauf”, “Papenburg”, “Deutsche Kabel” va boshqa ko‘plab yetakchi kompaniyalari muvaffaqiyatli ish olib bormoqda.

Tog‘-kon, energetika, kimyo, elektrotexnika, to‘qimachilik sanoati va infratuzilma bo‘yicha yangi loyihalar portfel shakllantirilgan.

Davlatimiz rahbari qo‘shma iqtisodiy tadbirlarni muntazam o‘tkazib borish, muqobil energetikani rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi va suv resurslari boshqaruvini raqamlashtirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, moliyaviy vositalarni kengaytirish, ikki mamlakat hududlari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, migratsiya va ko‘chuvchanlik sohasida hamkorlik qilish bo‘yicha qator aniq takliflarni ilgari surdi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON O‘QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

Muhtaram ustoz va murabbiylar!

Avvalo, sizlarni, ta‘lim-tarbiya sohasining barcha jonkuyar xodimlari va faxriylarini umumxalq bayrami — O‘qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbidan muborakbod etaman.

Bugun biz mamlakatimizda millati, tili, dinidan qat‘i nazar, har bir inson o‘z qobiliyati va iste‘dodini, bilim va tajribasini ro‘yobga chiqara oladigan ijtimoiy davlat barpo etmoqdami. Shu maqsadda barcha kuch va imkoniyatlarimizni yoshlarimizning intellektual va jismoniy kamoloti, ularning sifatli ta‘lim olib, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun safarbar etmoqdami.

Yaqinda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida ta‘lim sohasidagi islohotlarimiz ushbu nufuzli tashkilotning “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga uyg‘un va hamohang ekani e‘tirof etilgani barchamizni albatta xursand qiladi.

Bu yil yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk bor o‘qituvchi maqomi alohida belgilanib, ta‘lim tizimini rivojlantirish davlatning bosh vazifalari qatoriga

kiritilgani bejiz emas. Chunki jamiyat hayotida o‘qituvchining o‘rni va ta’siri oshsa — maktabning obro‘yi oshadi, ilm-fan, ta‘lim va tarbiya sohasining qadri ko‘tariladi. Muallimning obro‘-e‘tibori esa bu millatning, butun xalqning obro‘-e‘tiboridir.

So‘nggi yillarda birgalikdagi sa‘y-harakatlarimiz tufayli mamlakatimizda ko‘plab yangi bog‘chalar, maktab va oliygohlar barpo etilmoqda. Ta‘lim-tarbiya va ilm-fan muassasalarining moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanmoqda. Darslik va o‘quv qo‘llanmalarining yangi avlodi yaratilmoqda.

Soha xodimlarining mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va rag‘batlantirish doimiy e‘tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda. Oxirgi yetti yilda maktabgacha ta‘lim bo‘yicha qamrov darajasini 27 foizdan 72 foizga, oliy ta‘limda esa 9 foizdan 42 foizga, oliygohlarimiz sonini 77 tadan 212 taga yetkazishga erishganimiz, hech shubhasiz, eng muhim yutug‘imizdir.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUNOSABATI BILAN TA‘LIM-TARBIYA TIZIMIDA ALOHIDA O‘RNAK KO‘RSATGAN XODIMLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

“O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi” faxriy unvoni bilan

Achilov Do‘smurot Toshmurotovich — Karmana tumanidagi 21-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining kimyo fani o‘qituvchisi, Navoiy viloyati

Abdullayeva Dilbar Axmadovna — Jizzax shahridagi 3-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta‘limi xodimi” faxriy unvoni bilan

Atajonov Ozod Artikovich — Hazorasp tumanidagi 32-umumiy o‘rta

ta‘lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

Petrova Natalya Nikolayevna — Kattaqo‘rg‘on shahridagi 12-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi direktori, Samarqand viloyati

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan

Sodiqov Qosimjon Pozilovich — Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrası professori

Eshayev Anvar Kurganovich — O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining gimnastika nazariyasi va uslubiyati kafedrası mudiri

“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan

Shadmanov Alisher Kayumovich — Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Abdiyev Egamshukur — Koson tumanidagi 24-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Absalamova Muxabbat Qaxramonova — Zardor tumanidagi 25-ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta‘lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

Davomi 2-betda



O‘ZBEKISTON O‘QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

Boshlanishi 1-betda

Ta’lim-tarbiya sohasida qabul qilgan dasturlarimiz asosida keyingi vaqtda 261 ta yangi o’rta ta’lim muassasasini qurish, 2,5 mingta maktabni kengaytirish hisobidan qo’shimcha 700 mingta o’quvchi o’rni yaratilganini ta’kidlash lozim.

Bu yil xorijdan taklif etilgan 500 nafar chet tili mutaxassisi maktablarimizda ish boshladi. Kelgusi yillarda ularning sonini 3 barobar oshiramiz, 10-11-sinflarda bir qator fanlarni o’qituvchilarning tanlovi asosida chuqurlashtirib o’qitishni yo’lga qo’yamiz.

Ta’lim sohasi xodimlarining o’rtacha ish haqi 2 barobar ko’paytiriladi. Ming nafar tarbiyachi va o’qituvchilar xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuboriladi. O’qituvchilarni ishga qabul qilish, ularning malakasini oshirish va toifa berish tizimi ham takomillashtiriladi. Biz farzandlarimizni milliy g’urur, Vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga bundan buyon ham ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Qadrlido’stlar! Bugungi kunda mamlakatimizda maktab ta’limini qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish umummilliy harakatga aylanib bormoqda. Xususan, navoiylik Abdulkarim Saksonov, samarqandlik Quyosh Haqberdiyev, Iltom Rustamov, buxorolik Oybek Namozov, qashqadaryolik Nurbek Ergashev kabi o’nlab tadbirkorlarimiz o’z hududlarida yangi maktablar qurgani, ta’lim dargohlarini kapital rekonstruksiya qilib, zamonaviy asosda jihozlab bergani, ohangaronlik oqsoqol shoximiz Barot ota Isroilov esa hovlisida kutubxona ochib,

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

UZOQ MUDDATLI HAMKORLIKNING UMUMMINTAQAVIY AHAMIYATGA EGA USTUVOR YO‘NALISHLARI KO‘RIB CHIQLDI

Boshlanishi 1-betda

Madaniy-gumanitar almashinuvni rivojlantirish, fan va ta’lim sohaslarida qo’shma dasturlarni amalga oshirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekanini qayd etildi.

Mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash yuzasidan, shu jumladan, Afg’onistondagi vaziyatning rivojlanishi nuqtayi nazaridan fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Germaniya Federal Kansleri Olaf Sholsni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga kelishga taklif etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Germaniya iqtisodiyoti Sharqiy qo’mitasi shafeligida tashkil etilgan Iqtisodiy forum ishida ishtirok etdi.

Tadbirda Qozog’iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg’iz Respublikasi Prezidenti Sadr Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emonali Rahmon, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov ham qatnashdi.

Germaniya tomonidan alohida topshiriqlar bo’yicha federal vazir, Federal Kansler devoni rahbari Volfgang Shmidt, Iqtisodiyot va iqlimni muhofaza qilish federal vazirligi davlat kotibi Udo Filipp, Germaniya iqtisodiyoti Sharqiy qo’mitasi raisi Katrina Klaas-Myxloyzer ishtirok etdi.

Bundan tashqari, forum ishida “CLAAS”, “Siemens Energy”, “Knauf”, “Linde”, “Papenburg”, “BayWa”, “WLO”, “IPEX-Bank”, “Commerzbank”, “AKA”, “Mangold Consulting”, “Deutsche Bahn”, “DB E.C.O.”, “Euler Hermes”, “Ernst Klett”, “SMS Group”, “Deutsche Bank”, “Evonik Industries”, “John Deere”, “BASF”, “Airbus” kabi Germaniyaning yetakchi kompaniya va banklari rahbarlari qatnashdi.

O‘zbekiston yetakchisi bugungi tadbir Germaniya biznesida Markaziy Osiyo mamlakatlari bozorida faoliyatini kengaytirishga qiziqish ortib borayotganidan dalolat ekanini katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Investitsiyaviy, innovatsiyaviy va texnologik hamkorlik masalalari, yuqori texnologik tarmoqlarda, shuningdek, “yashil” energetika, xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, logistika va transport, kadrlar tayyorlash bo’yicha kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish istiqbollari ko’rsatib o’tildi.

— Biz sizlar bilan birgalikda mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo’yicha katta ish olib bormoqdamiz, samarali qo’shingan qiymat zanjirlari va minglab yangi ish o’rinlarini yaratmoqdamiz. Biz ochiq muloqot uchun yangi maydonlar va doimiy platformalar paydo bo’lishidan manfaatdormiz, — dedi Prezidentimiz.

Keyingi yillarda O‘zbekiston bilan Germaniya o’rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy munosabatlari rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Qo’shma loyiha va korxonalar soni ikki barobar ko’paydi.

— Barchangiz ko’p qirrali O‘zbekiston — Germaniya munosabatlarini rivojlantirish uchun haqiqatda katta hissa qo’shyapsiz,

uni o’z hisobidan 10 mingta kitob bilan ta’minlab, bu ma’rifat maskanini qishloq o’quvchilariga sovg’a qilgani har qancha tahsinga sazovor.

Safarlari tobora ko’payib borayotgan mana shunday insonlar siymosida biz jadid bobolarimizning munosib davomchilarini, ularning ushlayotgan orzu va intilishlarini, Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini ko’ramiz.

Imkoniyatdan foydalanib, bunday fidoyi, saxovatli yurtdoshlarimizga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Muhtaram yurtdoshlar!

Taraqqiyotimiz dasturi bo’lmish “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida sizlar bilan birga ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bo’yicha yangi maqsad va rejalarni belgilab oldik.

Ana shu ustuvor vazifalarni amalga oshirish, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni zimmasiga olishga qodir yangi avlodni tarbiyalash barchamizdan katta kuch-g’ayrat, azmu shijoat bilan mehnat qilishni talab etadi.

Mana shunday sharaflı vazifani ado etishda men siz, muhtaram ustoz va murabbiylarga har tomonlama yordam va ko’mak berishga tayyor ekanimni yana bir bor izhor etib, barchangizga sihat-salomatlik, baxt-u saodat, olijanob faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Hamisha sog’-omon bo’ling, muhtaram ustozlar!

Boshlanishi 1-betda

Axmadjonov Xasanboy Mirxakimovich — Paxtaobod tumanidagi 21-ixtisoslashtirilgan umumiy o’rta ta’lim maktab-internatining nemis tili fani o’qituvchisi, Andijon viloyati

Ziyoieva Adolat Nurmatovna — Yuqori Chirchiq tumanidagi 3-umumiy o’rta ta’lim maktabi direktori, Toshkent viloyati

Israilov Baxriddin Muxammadiyevich — Samarqand shahridagi 59-ko’zi oqiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining matematika fani o’qituvchisi, Samarqand viloyati

Urunboev Shuxrat Minojiddinovich — Farg’ona tumanidagi 15-umumiy o’rta ta’lim maktabining tasviriy san’at va chizmachilik fani o’qituvchisi, Farg’ona viloyati

Sharipova Muborak Mirzajonovna — Is’hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabining matematika fani o’qituvchisi, Namangan viloyati

“Do’stlik”
ordeni bilan

Abdunazarov Akmal Rahimovich — Tayloq tumanidagi 1-kasb-hunar maktabining maxsus fan o’qituvchisi, Samarqand viloyati

Abipova Zamira Maksetbayevna — Nukus shahridagi 33-umumiy o’rta ta’lim maktabining biologiya fani o’qituvchisi, Qoraqalpog’iston Respublikasi

Allaberganova Feruza Saparbayevna — Qo’shko’pir tumanidagi 5-ixtisoslashtirilgan umumiy o’rta ta’lim maktabining nemis tili fani o’qituvchisi, Xorazm viloyati

Asrorov Isak Urozboyevich — Sardoba tumanidagi 11-umumiy o’rta ta’lim maktabining matematika fani o’qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Yerejepova Aliya Nurberdiyevna — Tomdi tumanidagi 15-umumiy o’rta ta’lim maktabining boshlang’ich sinf o’qituvchisi, Navoiy viloyati

Ismatova Latofat Ubaydulloyevna — Sariosiyo tumanidagi 12-umumiy o’rta ta’lim maktabining boshlang’ich sinf o’qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Kamalov Amangeldi Bazarbayevich — Nukus davlat pedagogika institutining fizika o’qitish metodikasi kafedrası mudiri, Qoraqalpog’iston Respublikasi

Karimov Madjit Malikovich — O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi direktori

Kim Natalya Konstantinovna — O’rta Chirchiq tumanidagi 59-umumiy o’rta ta’lim maktabining matematika fani o’qituvchisi, Toshkent viloyati

Kulanov Danabay Burxonovich — G’allaorol tumanidagi 40-umumiy o’rta ta’lim maktabining matematika fani o’qituvchisi, Jizzax viloyati

Qudratov Yusup Xolmirzayevich — Ko’kdala tumanidagi 39-umumiy o’rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Muradova Matlubaxon Maxamadjonovna — Farg’ona viloyati “Muruvvat” nogironlari bo’lgan bolalar uchun internat uyi tarbiyachisi

Nabokina Alla Vladimirovna — Yakkasaroy tumanidagi 48-umumiy o’rta ta’lim maktabining fransuz tili fani o’qituvchisi, Toshkent shahri

Nishonov Dodonishon Xomidjonovich — So’x tumanidagi 11-umumiy o’rta ta’lim maktabining tarix fani o’qituvchisi, Farg’ona viloyati

Odinsova Natalya Yuryevna — Yashnobod tumanidagi 204-umumiy o’rta ta’lim maktabi direktori, Toshkent shahri

Permatova Naila Rifkatovna — Jarqo’rg’on tumanidagi 1-umumiy o’rta ta’lim maktabining boshlang’ich sinf o’qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Raximova Dilfuza Nigmatovna — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining menejment nazariyasi va amaliyoti kafedrası mudiri

Tadjibayev Nozim Xakimjanovich — Uchqo’rg’on tumanidagi 6-ixtisoslashtirilgan umumiy o’rta ta’lim maktab-internatining tarix fani o’qituvchisi, Namangan viloyati

To’ychiyev Abdurauf Sharobidinovich — Asaka tumanidagi 24-ixtisos-

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUNOSABATI BILAN TA’LIM-TARBIYA TIZIMIDA ALOHIDA O‘RNAK KO‘RSATGAN XODIMLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

lashtirilgan umumiy o’rta ta’lim maktab-internatining fizika fani o’qituvchisi, Andijon viloyati

Xafizov Alisher Raximovich — Buxoro davlat tibbiyot instituti akademik litseyining kimyo fani o’qituvchisi, Buxoro viloyati

Yusupova Ofeliya Yunusovna — O‘zbekiston davlat konservatoriyasining maxsus fortepiano kafedrası professori

II darajali
“Sog’lom avlod uchun”
ordeni bilan

Abduraxmonova Moxiraxon Ortigqovna — Qo’qon shahridagi kasb-hunar maktabining maxsus fan o’qituvchisi, Farg’ona viloyati

Aliyev Rayimjon — Andijon davlat universitetining fizika kafedrası professori, Andijon viloyati

Axmédova Masuda Xaydarovna — V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabining tori cholg’ular bo’limi maxsus fan o’qituvchisi, Jizzax viloyati

Jumanazarov Umurzak Abdurazakovich — Jizzax davlat pedagogika universitetining boshlang’ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti kafedrası professori, Jizzax viloyati

Kenjayeva Zamira Normaxmatovna — Urgut tumanidagi 87-umumiy o’rta ta’lim maktabining boshlang’ich sinf o’qituvchisi, Samarqand viloyati

Kilichov Kodir Bobakulovich — Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning matematika fani o’qituvchisi, Toshkent shahri

Kuchmuradova Barnna Ernazarovna — Mirzaobod tumanidagi 20-umumiy o’rta ta’lim maktabining kimyo fani o’qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Matyakubova Zulxumor Adambayevna — Uchtepa tumanidagi 81-ixtisoslashtirilgan umumiy o’rta ta’lim maktabining kimyo fani o’qituvchisi, Toshkent shahri

Muxamedova Mukambar Djurayevna — Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litseyining biologiya fani o’qituvchisi

Nurullayeva Shoirna Kushnazarovna — Urganch davlat universitetining tarix kafedrası dotsenti, Xorazm viloyati

Nushbakova Karomat Normurodovna — Navoiy shahridagi 8-ixtisoslashtirilgan umumiy o’rta ta’lim maktabining boshlang’ich sinf o’qituvchisi, Navoiy viloyati

Raximova Zulayxo Ismoyilovna — Urganch tumanidagi 23-umumiy o’rta ta’lim maktabining informatika fani o’qituvchisi, Xorazm viloyati

Rustamova Mavlyuda Erkinovna — Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining kafedra katta o’qituvchisi

Samatov Nurilla Fayzillayevich — Toshkent shahridagi imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan 1-kasb-hunar maktabining ishlab chiqarish ta’limi ustasi

Tadiyev Mirxatam Mirodilovich — Qibray tumanidagi 4-umumiy o’rta ta’lim maktabining jismoniy tarbiya fani o’qituvchisi, Toshkent viloyati

Tajimova Muxabbat Abdukadirovna — Beruniy tumanidagi 7-maktabgacha ta’lim tashkiloti mudiri, Qoraqalpog’iston Respublikasi

Temirova Gulnoza Nematovna — Nurota tumanidagi 36-umumiy o’rta ta’lim maktabining fizika fani o’qituvchisi, Navoiy viloyati

Tleuova Dilbar Abduraxmanovna — Mo’ynoq tumanidagi ixtisoslashtirilgan umumiy o’rta ta’lim maktabining matematika fani o’qituvchisi, Qoraqalpog’iston Respublikasi

Xalmurodov Avlakul Kosimovich — Shahrisabz tumanidagi “Barkamol avlod” bolalar maktabi direktori, Qashqadaryo viloyati

Xotamova Munavvar Sayfulloyevna — Buxoro shahridagi 12-ixtisoslashtirilgan umumiy o’rta ta’lim maktabining ingliz tili fani o’qituvchisi, Buxoro viloyati

Shodiyeva Muhabbat Aminovna — Sherobod tumanidagi 8-bolalar musiqa va san’at maktabining dutor sinfi o’qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Shodmonaliyeva Muxayyo Baxodirovna — Izboskan tumanidagi “Lider-

lar maktabi” nodavlat ta’lim muassasasi ta’sischisi, matematika fani o’qituvchisi, Andijon viloyati

Yusupova Maxpuza Numanovna — Namangan muhandislik-texnologiya institutining manzarali bog’dorchilik va ko’kalamzorlashtirish kafedrası professori, Namangan viloyati

“Sog’lom turmush”
medali bilan

Axadova Sanoat Xabibovna — Samarqand tumanidagi 43-umumiy o’rta ta’lim maktabining tojik tili va adabiyoti fani o’qituvchisi, Samarqand viloyati

Berdiyeva Shaxnoza Ergashevna — Sharof Rashidov tumanidagi 23-umumiy o’rta ta’lim maktabining musiqa fani o’qituvchisi, Jizzax viloyati

Vaxabov Abduxamid — Farg’ona viloyati Chim ustida xokkey federatsiyasi ijrochi direktori, murabbiysi

Garjiyev Ilmurat Xalmuxammetovich — To’rtko’l tumanidagi 38-umumiy o’rta ta’lim maktabining jismoniy tarbiya fani o’qituvchisi, Qoraqalpog’iston Respublikasi

Ismoilova Gulnora Samandarovna — Andijon shahridagi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumining maxsus fan o’qituvchisi, Andijon viloyati

Madrahimova Dildora Mirzaakbarovna — O‘zbekiston tumanidagi “Yangi umid va ishonch” oilaviy bolalar uyi rahbari, Farg’ona viloyati

Sagitov Mirxan Mirgaziyan — Toshkent shahridagi “Tashkent Runners” yuguruvchilar jamiyati rahbari

Tursunova Marhabo Teshayevna — Vobkent tumanidagi 1-maktabgacha ta’lim tashkiloti defektologi, Buxoro viloyati

Tursunova Munavar Ergashevna — Kitob tumanidagi “Zvyozdochki kosmosa” nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari, Qashqadaryo viloyati

“Shuhrat” medali bilan

Abdrasuliyeva Arzayim Sabirbayevna — Qonliko’l tumanidagi 18-ixtisoslashtirilgan umumiy o’rta ta’lim maktabining kimyo fani o’qituvchisi, Qoraqalpog’iston Respublikasi

Abdulakimova Diljaxon Boltayevna — Termiz davlat universiteti akademik litseyining tarix fani o’qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Abdullayev Sarvar Ravshanovich — Toshkent shahridagi Inha universiteti lektori

Abdullayeva Feruza Erkinovna — Norin tumanidagi 40-umumiy o’rta ta’lim maktabining tasviriy san’at va chizmachilik fani o’qituvchisi, Namangan viloyati

Aliyorov Mansurxon Mashrabovich — Pop tumanidagi 11-ixtisoslashtirilgan umumiy o’rta ta’lim maktab-internatining fizika fani o’qituvchisi, Namangan viloyati

Ashiraliyeva Nilufar Ummatkulovna — Sirdaryo tumanidagi 71-aqli zaif bolalar uchun maktab-internatining texnologiya fani o’qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Buryak Yelena Vladimirovna — Zarafshon shahridagi 3-ixtisoslashtirilgan umumiy o’rta ta’lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o’qituvchisi, Navoiy viloyati

Gayepov Saidjon Utirovich — Qarshi shahridagi 18-ko’zi oqiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining matematika fani o’qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Gulomova Dilbarxan Sadikovna — Shahrixon tumanidagi 44-ixtisoslashtirilgan umumiy o’rta ta’lim maktabining biologiya fani o’qituvchisi, Andijon viloyati

Doniyorova Aziza Maxmudovna — Guliston shahridagi “Intellett” nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari, Sirdaryo viloyati

Dushayeva Zamira Pirmazarovna — Jomboy tumanidagi 17-maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, Samarqand viloyati

Jaxonov Mexriddin Jamolovich — Kattaqo’rg’on tumanidagi 2-umumiy o’rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi, Samarqand viloyati

Ibragimov Azizbek Isroilovich — Olmaliq shahridagi “Buxoro maktabi”

nodavlat ta’lim muassasasi rahbari, tarix fani o’qituvchisi, Toshkent viloyati

Kim Vitaliy Nikolayevich — Mirobod tumanidagi “Mates” nodavlat ta’lim muassasasi ta’sischisi, ingliz tili fani o’qituvchisi, Toshkent shahri

Qaxorova Shahnoza Sunnatillayevna — Navoiy shahridagi Prezident maktabining ingliz tili fani o’qituvchisi, Navoiy viloyati

Qilichov Ne’matjon Yuldashovich — Xiva shahridagi 121-ko’zi oqiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi, Xorazm viloyati

Nazirov Xolimboy Nishonovich — Mirzo Ulug’bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning fizika fani o’qituvchisi, Toshkent shahri

Ramazanova Gulnoz Xalilovna — Buxoro tumanidagi 9-umumiy o’rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi, Buxoro viloyati

Raximov Xaitmurat Usmanovich — Chiroqchi tumanidagi 124-ixtisoslashtirilgan umumiy o’rta ta’lim maktabining kimyo fani o’qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Raximova Xurzoda Kamulovna — Chirchiq shahridagi kasb-hunar maktabining maxsus fan o’qituvchisi, Toshkent viloyati

Raxmatov Mirolim To’xtayevich — G’ijduvon tumanidagi “The school of mathematical academy” nodavlat ta’lim muassasasi rahbari, ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi, Buxoro viloyati

Sattarova Xolida Azadovna — Xonqa tumanidagi 1-kasb-hunar maktabining ishlab chiqarish ta’limi ustasi, Xorazm viloyati

Soataliyeva Matluba Murodovna — Chortoq tumanidagi 4-maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, Namangan viloyati

Subonova Guzal Uktamovna — Paxtakor sanoat texnologiyalari texnikumining maxsus fan o’qituvchisi, Jizzax viloyati

Sultanova Odina G’opurovna — Bekobod shahridagi ixtisoslashtirilgan umumiy o’rta ta’lim maktabining fizika fani o’qituvchisi, Toshkent viloyati

Umarova Feruza Abidinovna — Olmazor tumanidagi ixtisoslashtirilgan umumiy o’rta ta’lim maktabining informatika fani o’qituvchisi, Toshkent shahri

O’rmonov Ne’matillo Maxamedovich — Xo’jaobod tumanidagi 26-umumiy o’rta ta’lim maktabining texnologiya fani o’qituvchisi, Andijon viloyati

Xidoyatova Nargiza Sadiqjonovna — Yunusobod tumanidagi 5-umumiy o’rta ta’lim maktabi direktori, Toshkent shahri

Xudayorov Hamza Murtazovich — Guliston shahridagi Prezident maktabining kimyo fani o’qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Xolbutayeva Muqaddas Mamatmuratovna — Jizzax politehnika instituti akademik litseyining biologiya fani o’qituvchisi, Jizzax viloyati

Xolmirzayev Sardor Zafar o’g’li — Sho’rchi tumanidagi 125-ko’zi oqiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining matematika fani o’qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Xolmurzayev Xayotjon Kirgizbayevich — Farg’ona tumanidagi “Le Crayon” nodavlat ta’lim muassasasi ta’sischisi, kimyo fani o’qituvchisi, Farg’ona viloyati

Xudoyazarov Ilyos Abdurasulovich — Toshkent shahridagi Prezident maktabining kimyo fani o’qituvchisi

Shaymardanova Gavxar Egamberdiyevna — Oltinsoy tumanidagi 30-umumiy o’rta ta’lim maktabining biologiya fani o’qituvchisi, Surxondaryo viloyati



Suv tashvishi

Davlatimiz rahbari BMT minbarida yana bir bor dunyo hamjamiyati e'tiborini ushbu masalaga qaratdi



Shavkat HAMROYEV,
suv xo'jaligi vaziri

Ariqlarimizda oqayotgan zilol suv, quvurlar orqali xonadonimizgacha yetkazib berilayotgan toza obihayot, unumdor va serhosil yerlar — bular biz uchun katta inoyat. Ana shu omillar, qolaversa, Amudaryo va Sirdaryo havzasida joylashgan jonajon diyorimizda suvchilarning mashaqqatli mehnati evaziga dalalarga suv yetkazib berilib, ekinlardan mo'l hosil olinyapti. Bozorlarimiz yil-o'n ikki oy to'kin, dasturxonimiz noz-ne'matlarga to'la, turmushimiz yildan-yilga farovonlashib borayotgani ham shundan.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan respublikamiz suv xo'jaligi sohasini kompleks rivojlantirish, mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish, jumladan, raqamli va tejamlor texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilib, bu borada muayyan natijalarga erishilmoqda.

Markaziy Osiyoda suv taqchilligi muammosi chuqurlashib bormoqda. Oxirgi 30 yilda mintaqada havo harorati bir yarim darajaga ko'tarildiki, bu — dunyodagi o'tacha isishdan ikki karra ko'pdir. Buning natijasida daryo va soylarimizni shakllantiradigan muzliklar umumiy maydonining qariyb uchdan bir qismi erib ketdi. Agar shu tendensiya davom etadigan bo'lsa, yaqin yigirma yilda ikki yirik daryo — Amudaryo va Sirdaryo oqimi hozirgidan 15 foizga qisqarishi mumkin. Shunday bo'lgan taqdirda, aholi jon boshiga suv bilan ta'minlanish darajasi va qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi hozirgidan 25 foizga kamayib ketadi.

Bular shunchaki raqamlar emas, bu yerda yashovchi xalqlarning taqdiri, farovonligiga bevosita daxldor ko'rsatkichlar. Hisob-kitoblarga qaraganda, Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida 2040-yilga borib, suv resurslariga bo'lgan ehtiyoj uch barobar oshadi. Vaqt o'tishi bilan iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning 11 foiziga yetishi mumkin. BMT hozirning o'zidayoq mintaqada davlatlari suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish oqibatida yiliga 2 milliard dollargacha mablag' yo'qotayotganidan ogohlantirmoqda.

Shu bois, vaqtida ta'sirchan choralar ko'rilmasa, suv taqchilligining oqibatlari Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy putur yetkazishi muqarrarligini hisobga olgan holda, Prezidentimiz tomonidan xalqaro minbarlarda yangi tashabbuslar ilgari surilyapti.

Davlatimiz rahbari joriy yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida Markaziy Osiyoda suv resurslari taqchilligi bilan bog'liq masalaga alohida urg'u berdi. Vaziyatdan kelib chiqqan holda, **Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili** lavozimi ta'sis etilishini qo'llab-quvvatlagan holda, Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida **"Birlashgan Millatlar Tashkiloti — suv resurslari"** mexanizmini ishga solib, eng ilg'or texnologiyalarni jalb etish va tatbiq qilish tarafdori ekanini ta'kidladi. Bu o'z o'rnida O'zbekiston Markaziy Osiyoning suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratishda tashabbuskor bo'lishini, shu bilan birga, jarayonga xalqaro hamjamiyatni ham jalb etishdan manfaatdor ekanini anglatadi.

Mintaqadagi qo'shni davlatlar bilan nizo yoki ziddiyatlar yuzaga kelgan taqdirda transchegaraviy daryolar suvidan foydalanishda qanchalik mashaqqat va muammolar paydo bo'lishini yaqin tarixda boshdan o'tkazdik. Markaziy Osiyo tinchligiga tahdid soluvchi tashqi ta'sirlar ham suvni richag sifatida ishlatishga uringan holatlar bo'ldi.

Prezidentimizning qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yishi natijasida ziddiyatlar barham topib, suv bo'yicha muammolar ham yechilmoqda.

Tashkil etilganiga 30 yil to'lgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi bugungi kunga kelib, suv va ekologiya sohasida mintaqaviy hamkorlikning eng muhim platformasiga aylandi. Global iqlim o'zgarishlari oqibatida vujudga kelayotgan yangi xavf va tahdidlar sharoitida jamg'armaning o'zni hamda ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Joriy yil 15-sentabr kuni Prezidentimiz Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisida mazkur tuzilma doirasida uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan kelishilgan yangi qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish tashabbusini ilgari surdi. Bugungi kun ruhdan kelib chiqib, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va institutsional mexanizmlarini modernizatsiya qilish zarurligi e'tirof etildi. O'zbekiston jamg'armaning asosiy hujjatlari va bitimlarini xatlovdan o'tkazish, jumladan, 1990-yillarda qabul qilingan Jamg'arma nizomini qayta ko'rib chiqish, amaldagi tuzilma faoliyatini birgalikda tahlil qilish, jamg'armaning faoliyati hamda hamkorlik masalalarini aniq tartibga soluvchi "Qoida va tartib-taomillar"ni ishlab chiqish tarafdori ekanini ta'kidladi.

Albatta, jamg'armani rivojlantirish va isloh etish jarayonlarini tarmoqlararo tamoyil asosida, ya'ni zamonaviy ekologik tahdidlarni hisobga olgan holda, **"suv — energetika — oziq-ovqat"** tartibidagi kompleks yondashuvlar negizida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, jamg'armaning asosiy hujjatlarida transchegaraviy daryolar suv resurslarini boshqarish va foydalanish sohasida umume'tirof etilgan me'yorlar, prinsiplar va o'zaro majburiyatlar ham o'z ifodasini topishi kerak.

Prezidentimiz jamg'armaning amaldagi tuzilmalari samarasini kadrlar va texnik salohiyatni kuchaytirish, kompetensiyani kengaytirish hisobidan tubdan oshirish kerakligiga urg'u berdi.

Suv va boshqa tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish madaniyatini shakllantirish, maxsus dasturni qabul qilgan holda, yoshlar tashabbuslari va



“HECH KIMGA SIR EMAS, O‘ZBEKISTON FOYDALANADIGAN SUV RESURLARINING 90 FOIZI QISHLOQ XO‘JALIGIDA SARFLANADI. SUV TAQCHILLIGI BILAN BOG‘LIQ VAZIYATNI E‘TIBORGA OLIB, HAR YILI QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA KAMIDA 7 MILLIARD KUB METR SUVNI TEJASH CHORALARI KO‘RILYAPTI. O‘TGAN SAKKIZ OYNI HISOB-KITOB QILADIGAN BO‘LSAK, 5,2 MILLIARD KUB METR MIQDORIDA SUV RESURLARI IQTISOD QILINISHIGA ERISHILDI.

startaplarini qo'llab-quvvatlash masalalarida yoshlar bilan ishlashni mintaqaviy darajada tashkil etishga alohida e'tibor qaratish tashabbusi, shubhasiz, **kengash majlisidagi eng kreativ taklif bo'ldi, desak yangilishmaymiz.**

Sababi, suv va boshqa tabiiy resurslarni tejash madaniyatini o'sib kelayotgan yoshlar ongiga singdirmasdan turib, bu borada to'laonli natijaga erishib bo'lmaydi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida suvni tejash bo'yicha milliy dastur ishlab chiqilishi, suvni tejash sohasini jamg'arma faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab, bu borada hamkorlikni kuchaytirish, kelgusi yili Samarqandda o'tkazilishi rejalashtirilayotgan Xalqaro iqlim forumi doirasida jahondagi yetakchi kompaniyalarning suvni tejash borasidagi texnologiyalari ko'rgazmasini tashkil etish rejalari haqida bayonotlar davlatimiz rahbari mintaqalarning tashvishi bilan yashayotgani, suv masalasida qo'shnilarni faol hamkorlikka da'vat etayotganini tasdiqlaydi.

Afg'oniston "Qo'shtepa" kanali qurilishi boshlagani bu yil ijtimoiy tarmoqlarda eng ko'p muhokamaga sabab bo'lgan mavzulardan biriga aylandi. Xavotirlarga asos bor, yangi kanalning ishga tushirilishi Markaziy Osiyodagi suvdan foydalanish tartibi va muvozanatini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Qo'shni davlatning Amudaryo suvidan foydalanish uchun yangi ishtirokchi sifatida maydonga chiqishi ancha yillardan beri kutilayotgan bo'lib, mamlakat ichkarisida barqarorlik o'rnatilishiga bevosita bog'liq.

Prezidentimiz "Qo'shtepa" kanalining qurilishi va uning Amudaryo suvidan foydalanish tartibiga ta'siri bilan bog'liq barcha jihatlarini mintaqadagi tadqiqot institutlarini jalb etgan holda o'rganish bo'yicha Qo'shma ishchi guruhini shakllantirish tashabbusini ilgari surdi. Afg'oniston vakillarini suv resurslaridan birgalikda foydalanish bo'yicha mintaqaviy mulqotga jalb etish masalasini ko'rib chiqishni taklif etdi.

Shu bilan birga, ichki siyosatda ham kelgusida kutilayotgan suv tanqisligini yumshatish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tashabbusi ilgari surilmoqda. Kelgusi 7 yilda mamlakatning asosiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim dasturlamal hujjat bo'lgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi bunga yaqqol misoldir. **Beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha 100 ta muhim maqsad aks etgan strategiyani 3-yo'nalishi suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza**

qilishga bag'ishlangani suvchilarga ham ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Strategiyada suv ishlatish samaradorligini 25 foizga oshirish, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 million gektargacha, shu jumladan, tomchilab sug'orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish vazifasi qo'yildi.

Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan kompleks foydalanish va ularni muhofaza qilish sxemalariga muvofiq, O'zbekiston uchun o'rta ko'p yillik suv olish limiti 64 milliard kub metrni tashkil etadi. Muzliklarning va yirik daryolar havzalarida, kichik daryo va soylarda suv sarfining kamayib borayotgani tufayli oxirgi yigirma besh-o'ttiz yilda respublikamizning suv olish miqdori kamayib borib, yiliga o'rta 51-53 milliard kub metr tushib qolgan.

Hech kimga sir emas, O'zbekiston foydalanadigan suv resurslarining 90 foizi qishloq xo'jaligida sarflanadi. Suv taqchilligi bilan bog'liq vaziyatni e'tiborga olib, har yili qishloq xo'jaligi sohasida kamida 7 milliard kub metr suvni tejash choralari ko'rilayapti. O'tgan sakkiz oyni hisob-kitob qiladigan bo'lsak, 5,2 milliard kub metr miqdorida suv resurslari iqtisod qilinishiga erishildi.

Jumladan, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish hisobidan 1,7 milliard kub metr, irrigatsiya tarmoqlarida ta'mirlash-tiklash tadbirlarini o'tkazish hisobidan 1,4 milliard kub metr, AKT va raqamli texnologiyalarni joriy etish hisobidan 0,4 milliard kub metr, suv kam talab qiladigan ekinlar ulushini ko'paytirish va sholini intensiv usulda ekish hamda ekin maydonlarida qo'shimcha agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish hisobidan 1,7 milliard kub metr miqdorida suv tejaldi. Kuzgi boshqoli don ekinlarini sug'orish, sho'r yuvish tadbirlarida suvdan samarali foydalanish orqali yil oxirigacha yana 2 milliard kub metr suv iqtisod qilinishiga erishildi.

Respublikada jami sug'oriladigan yer maydonlari 4,3 million gektar bo'lib, 2023-yil sug'orish mavsumigacha suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan maydonlar 1,2 million gektarga yoki sug'oriladigan yerlarning 28 foiziga yetkazildi. Jumladan, 473,5 ming gektar maydonda tomchilab, 44,7 ming gektarda yomg'irliq, 18 ming gektarda diskret, 133,9 ming gektar maydonda boshqa suv tejovchi sug'orish tizimlari joriy qilindi hamda 569 ming gektar ekin maydonlari lazer uskunasi yordamida tekislandi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida yana bir ustuvor vazifa sifatida dalalarga

suv yetkazadigan obyektlarni tadbirkorlar (fermer xo'jaliklari va klasterlar) boshqaruviga berish belgilangan. Yangi tajribaga asosan, Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq, Sirdaryo viloyatining Sardoba va Oqoltin, Qashqadaryo viloyatining Kasbi va Nishon, Jizzax viloyatining Do'stlik, Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi suv xo'jaligi obyektlari to'liq klaster tashkilotlari boshqaruviga berildi.

Natijalarni Narpay tumani misolida tahlil qiladigan bo'lsak, ilgari tuman suv xo'jaligi tashkilotlari hisobida bo'lgan 53 kilometr kanal va 271,9 kilometr kollektor tarmoqlari hamda 8 ta nasos stansiyasini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida



10 yil muddatga "Maroqand Sifat" MCHJ o'z boshqaruviga oldi. Loyiha doirasida investitsiya majburiyatlari to'liq bajarilishi hisobiga 10 yilda 121,8 million kilovatt-soat elektr energiyasi yoki 97,4 milliard so'm davlat budjet mablag'i iqtisod qilinishi ko'zda tutilgan. Strategiya doirasida bir tumandagi suv xo'jaligi obyektlarini to'liq xususiy sherik boshqaruviga berish amaliyoti keng davom ettirildi.

Qo'shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo'jaligi obyektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida faol ikki taraffa manfaatli hamkorlikni davom ettirish zarurligi ham ushbu muhim hujjatda o'z aksini topgan.

Joriy yil 22-iyunda O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, Qozog'iston Respublikasi Ekologiya, geologiya va tabiiy resurslar vazirligi hamda Tojikiston Energetika va suv resurslari vazirligi o'rta-tasida "Baxri tojik" suv omborini 2023-yil iyun-avgust oylarida ishlatish bo'yicha uch tomonlama bayonnomma imzolandi va bu vegetatsiya davrini muvaffaqiyatli o'tkazishga xizmat qildi.

2023-yil 21-avgust kuni Qirg'iz Respublikasining Issiqko'li viloyati Cho'k-Tal qishlog'ida O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va Qirg'iz Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligi xizmati o'rta-tasidagi qo'shma suv xo'jaligi komissiyasining uchinchi yig'ilishi o'tkazildi hamda Davlatlararo suv manbalaridan suv olish reja-jadvallarini kelishish va tasdiqlash kabi masalalar muhokama qilindi. Turkmaniston tomoni

bilan ham Amudaryo suvidan foydalanish bo'yicha mulqotlar samarali kechmoqda.

O'zbekiston — Markaziy Osiyo mintaqasida irrigatsiya tarmog'i eng rivojlangan va yirik suv xo'jaligi infratuzilmasiga ega davlat. Yanvar-avgust oylarida irrigatsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha 415 milliard so'm mablag' o'zlashtirilib, 186 kilometr kanal, 31 kilometr lotok tarmoqlari, 5 ta gidrotexnika inshooti va boshqa ko'plab obyektlarni qurish hamda rekonstruksiya qilish ishlari bajarildi.

Melioratsiya yo'nalishida 183 kilometr ochiq hamda 129 kilometr yopiq-yotiq kollektor drenaj tarmoqlari, 21 ta gidrotexnika inshooti va boshqa obyektlarda qurilish-montaj ishlari yakuniga yetkazildi. Qariyb 3 ming 780 kilometr xo'jaliklararo sug'orish tarmoqlari tozalanib, ulardagi 3 ming 695 dona gidrotexnika inshooti va 3 ming 630 dona gidropost ta'mirlandi. Natijada 380 ming gektar sug'oriladigan yerlarning suv ta'minoti yaxshilandi.

Yil boshidan buyon 3 ming 195 ta suv xo'jaligi obyekti "Aqli suv", 44 ta nasos stansiyasida suvni onlayn nazorat qilish qurilmasi hamda 1 ming 566 ta meliorativ kuzatuv qudug'ida "Dayver" qurilmasi o'rnatilib, 10 ta yirik suv xo'jaligi obyekti boshqaruv jarayoni to'liq avtomatlashtirildi.

Respublikamizdagi sug'oriladigan maydonlarning 60 foizi 1 ming 680 dan ziyod nasos stansiyalari va 4 mingdan ortiq sug'orish quduqlari orqali suv ichadi. Joriy yilga elektr energiyasidan 7145 million kilovatt-soat limit ajratilgan bo'lib, 1-sentabr holatiga ko'ra, 5029,7 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlatildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 150 million kilovatt-soat elektr energiyasi tejaldi.

O'tgan sakkiz oyda xorijiy kreditlar hisobidan 45 million dollar investitsiya o'zlashtirildi. Buning natijasida 264 kilometr kanal, 530 ta gidrotexnika inshooti rekonstruksiya qilindi, 13 ta yangi nasos



agregati o'rnatildi. Davlat-xususiy sheriklik bo'yicha 15 ta bitim imzolandi. 300 ta nasos stansiyasini boshqaruvga berish bo'yicha xususiy tashabbuskorlar bilan tegishli hujjatlar tayyorlanmoqda.

Suv xo'jaligi sohasiga ilmiy va innovatsion ishlarni joriy etish doimiy e'tiborda. Bu borada Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan hamda "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti bilan yaqin hamkorlikda ish olib borilyapti.

Jumladan, suv xo'jaligi sohasining dolzarb muammolari yechimiga qaratilgan umumiy qiymati 1,9 milliard so'mlik 19 ta ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida umumiy qiymati 4,9 milliard so'm bo'lgan 2 ta fundamental, 9 ta amaliy loyiha bajarilyapti.

Mintaqamiz aholisi soni yildan-yilga o'smoqda. Bu esa oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning yanada oshishiga, o'z navbatida, suvga talabning o'rtishiga olib keladi. Mana shunday sharoitda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan suv xo'jaligidagi islohotlar faqat va faqat ezuqlikka yo'naltirilgan.

Ko'p ming kishilik suvchilar jamoasi esa davlatimiz rahbari belgilab bergan yo'nalishlardan kelib chiqib, o'zaro hamjihatlikda qo'shni respublikalardagi hamkasblarimiz bilan yaqin hamkorlikda bo'lish, mavjud suv resurslarini birgalikda samarali boshqarish, obihayotdan oqilona foydalanish, resurstejamkor sug'orish usullarini keng tatbiq etish bo'yicha vazifalarini siddiqdildan ado etmoqda.





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



PREZIDENT QARORLARI — HAYOTDA VA NAZORATDA

TOPSHIRIQLAR SAMARALI VA TO‘LIQ IJRO ETILISHI

BARCHA DARAJADAGI RAHBARLARNING SHAXSIY JAVOBGARLIGI HISOBLANADI

Keyingi yillarda mamlakatimizda yer qa‘rini kompleks geologik o‘rganish, uzoq istiqbolga mo‘ljallangan mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta to‘ldirish dasturlari samarali bajarilishini, yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish, ularning investitsiyaviy jozibadorligini ta‘minlashda davlat siyosatini amalga oshirish bo‘yicha yagona geologiya xizmatini tashkil qilish yuzasidan bir qator kompleks chora-tadbirlar, xususan, yer osti tabiiy boyliklari xalq manfaatlari uchun xizmat qilishiga qaratilgan islohotlar hayotga tatbiq etildi.

Shu maqsadda aynan tog‘-kon sanoati, geologiya sohasini rivojlantirish bo‘yicha Prezidentimizning 8 ta qarori va 8 ta bayoni qabul qilinib, ularda jami **635 dan ortiq** ustuvor vazifalar belgilangan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi tomonidan sohada amalga oshirilayotgan ishlar holati, uni zamonaviy standartlar asosida takomillashtirish, yer osti minerallaridan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, yirik investitsiya loyihalarini yo‘lga qo‘yish va shu kabi dolzarb vazifalar yechimiga qaratilgan **6000 dan ortiq** topshiriq belgilangan.

Ushbu topshiriqlarning mukammal ijrosi yer osti boyliklari xalq manfaatlari uchun xizmat qilishini ta‘minlashda, davlatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishda juda muhim bo‘lib, belgilangan maqsadlarga erishishda hal qiluvchi o‘rin egallaydi.

Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir o‘z shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinishi ushbu yo‘nalishning qay darajada muhimligini ko‘rsatib berdi.

Farmon bilan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarni puxta ishlab chiqish hamda qabul qilishning ta‘sirchan amaliyotini shakllantirish, ularni aniq ijrochilar, keng jamoatchilik va aholiga tezkor yetkazish, belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish bo‘yicha shoshilinch hamda tezkor choralar ko‘rish maqsadida tashkiliy,

Albatta, bu kabi chora-tadbirlar yurtimiz hayotida sodir bo‘layotgan yangilanishlar talabi bo‘lgan ustuvor vazifalarining samarali ijrosini ta‘minlashda yuqori sifat va belgilangan muddatlarga rioya etish nechog‘liq zarurligini belgilaydi.

Shu kabi ko‘rilayotgan choralar natijasida, birinchi navbatda, davlat organlari, jumladan, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida ijro intizomi bo‘yicha muayyan tizim shakllandi.

Amaldagi tizimga ko‘ra: — har kuni devonxona tomonidan kun davomida qabul qilingan hujjatlarning kunlik harakati to‘g‘risida ma‘lumot shakllantirilib, ijro intizomi bo‘limda tahlil qilinadi va natijasi bo‘yicha rahbariyatga hisobot beriladi;

tarkibiy bo‘linmalari va tizim korxonalari rahbarlarining ijro intizomi bo‘yicha shaxsiy mas‘uliyati to‘g‘risida hisobotlarini eshitish amaliyoti joriy qilindi;

— ijro muddati keladigan topshiriqlar to‘g‘risida har o‘yning 25 sanasiga qadar keyingi oy topshiriqlari bo‘yicha ma‘lumotlar ijrochilarga yana bir marta yetkaziladi; — topshiriqlar ijrosining amaldagi natijalarini, ya‘ni joylardagi samarasini o‘rganish uchun hududlarga maqsadli xizmat safarlari hamda ijro intizomini mustahkamlashga qaratilgan o‘quv-seminarlar tashkil qilinmoqda.

Vazirlikda shakllangan ushbu tizim — o‘rta va quyi bo‘g‘inda mas‘uliyatni oshirish, qabul qilinayotgan har bir hujjat mazmun-mohiyati, ulardan kutilayotgan amaliy natijalarni joylardagi mas‘ullarga yetkazish, topshiriqlar ijrosini barvaqt ta‘minlash kabi mezonlarga asoslangan.

Tahlillar va muhokamalar natijasiga ko‘ra, ijro intizomini ta‘minlashda yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun rahbar va xodimlarga nisbatan **qat‘iy intizomiy jazo choralari belgilangan**. Misol uchun, birgina o‘tgan yili jami **30 nafar** rahbar xodimga nisbatan intizomiy jazo choralari, ya‘ni **4 ta hayfsan, 26 ta jarima** qo‘llanilgan.

Ijro intizomi holatini raqamlarda ifodalaydigan bo‘lsak, **“ljro.gov.uz” tizimi** bo‘yicha bugungi kuni holatiga vazirlikka aloqador **327** hujjatda jami **1918** topshiriq belgilangan. Shundan, **1575 tasi** (82 foiz) bajarilgan, **343 tasi** muddatida amalga oshirilmoqda.

Ushbu yo‘nalishda yana bir muhim

“TOG‘-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI TOMONIDAN 2023-YILNING ORTDA QOLGAN DAVRI MOBAYNIDA JAMI 38 HUJJAT LOYIHASI ISHLAB CHIQLIGAN BO‘LIB, SHUNDAN 1 TASI QONUN, 7 TASI PREZIDENT HUJJATI, 24 TASI HUKUMAT HUJJATI HAMDA 6 TA VAZIRLIK HUJJATLARI LOYIHALARINI TASHKIL ETADI.

masala, bu — me‘yoriy-huquqiy hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish va kelishish.

Bu borada ham muayyan tizim yo‘lga qo‘yilib, hujjatlari loyihalar bo‘yicha kunlik nazorat o‘rnatilgan. Mas‘ul xodimlarning huquqiy, iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarini hamda norma ijodkorligini oshirish maqsadida maxsus kurslarga jalb qilib borish choralari ko‘rilgan.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan 2023-yilning ortda qolgan davri mobaynida jami **38** hujjat loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lib, shundan **1 tasi** qonun, **7 tasi** Prezident hujjati, **24 tasi** Hukumat hujjati hamda **6 ta** vazirlik hujjatlari loyihalarini tashkil etadi.

Mazkur me‘yoriy-huquqiy hujjatlari ichida Prezidentimizning 2023-yil 27-iyuldagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida tog‘-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvinu samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinib, vazirlikning tashkiliy tuzilmasi hamda tizim osti muassasalarini qayta tashkil etish dasturi, vazirlik faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari, shuningdek, 2023-2025-yillarda mineral xomashyo bazasini rivojlantirish dasturi va uning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida ijro intizomini yanada mustahkamlashning navbatdagi choralari sifatida Prezident va Hukumat, shuningdek, yuqori turuvchi organlarning har bir topshirigi ijrosini yuqori

professional mahorat hamda zamonaviy ko‘nikmalar asosida “temir intizom” bilan maromiga yetkazib amalga oshirishda sifat va natijadorlikka alohida e‘tibor qaratiladi hamda bu boradagi ishlar tizimli olib boriladi.

O‘z navbatida, vazirlikning Prezident hujjatlari va topshiriqlari bo‘yicha nazorat mexanizmi birlamchi bo‘g‘iniga aylanishi tizimdagi barcha rahbarlar va mutaxassislarining kasbiy darajasi, ishchanlik malakasini yanada oshirishni, yuksak mas‘uliyat va jamoaviy intizomni kuchaytirishni talab etadi.

Bulardan ko‘zlangan pirovard maqsad, “Ijro intizomi — islohotlar garovi” tamoyili asosida jamiyatimiz hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarni tubdan yaxshilash, aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta‘minlash, xalqimizni rozi qilishdir.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizdagi o‘zgarishlarni butun dunyo kuzatmoqda. Oldimizga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni bajarish har birimizdan katta mas‘uliyat, intizom, fidoyilik va mashaqqatli mehnat talab etadi, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi, ko‘zlangan yuksak maqsadlarga erishishda bevosita har bir vazirlik, idora va tashkilotda mustahkam ijro intizomi bo‘lishi katta ahamiyatga ega.

Bobir ISLOMOV,
O‘zbekiston Respublikasi
tog‘-kon sanoati va
geologiya vaziri



SHUKUH

USTOZLARI QAHRAMON BO‘LGAN YURT

Poytaxtimizdagi “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida 1-oktabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi.

Ishtirokchilar dastlab Toshkent shahridagi “Adilbar xiyoboni”da bo‘lib, mazkur muazzam xiyobon misolida mamlakatimizda ma‘rifiy jabhada amalga oshirilayotgan keng qamrovli yangilanish jarayonlari bilan tanishdi.

“O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyidagi tantanali tadbirning ochildishida maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri Hilola Umarova so‘zga chiqib, mamlakatimizda ta‘lim sohasiga qaratilayotgan e‘tibor bugun misli ko‘rilmagan ko‘lam va miqyos kasb etayotganini ta‘kidladi. Bu borada davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlarini jahon andozalari darajasida takomillashtirish, Prezident maktablaridagi ilg‘or o‘quv metodika va tajribalarni umumta‘lim maktablarida ham ommalashtirish, pedagoglarning kasbiy bilim va salohiyatini yanada yuksaltirish, o‘qituvchilik kasbining jamiyatdagi mavqeiini oshirish borasida keng qamrovli yangilanish jarayonlari kechmoqda. Bularning bari maktabgacha va maktab ta‘limini sifat jihatdan yanada yuksaltirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Darhaqiqat, Prezidentimiz tomonidan ta‘limga qaratilayotgan ulkan e‘tibor jamiyatimizda kechayotgan yangilanish jarayonlarining yanada jadal kechishiga zo‘r turtki bermoqda. Yangilangan Konstittutsiyamizda o‘qituvchi maqomini yanada yuksaltirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

Tantanali tadbirida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigini Prezident Administrasiyasining Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari OdilAbdurahmonov o‘qib eshittirdi.

Tadbirida so‘nggi yillarda pedagog kadrlar uchun yurtimizda misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratib berilgani alohida ta‘kidlandi. Jumladan,



ta‘lim sohasi xodimlarining o‘rtacha ish haqi sezilarli darajada oshirildi. Pedagog xodimlar tomonidan yuritilayotgan hujjatlar soni keskin kamaytirildi. O‘qituvchilarning obro‘si, jamiyatdagi mavqeiini kuchaytirishga, ularning haq-huquqlarini yanada ko‘proq himoyalashga qaratilgan bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan birga, ta‘lim tashkiloti pedagog xodimining kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish yoki o‘z xizmat vazifalarini bajarishga to‘sqinlik qilish uchun ham ma‘muriy javobgarlik kuchaytirildi.

Yurtimiz ta‘lim muassasalarida dars berayotgan ustozlar, shuningdek, xorijlik pedagoglarning katta guruhiga “Xalq ta‘limi a‘lochisi”, “Xalq ta‘limi fidoyisi” ko‘krak nishonlari topshirildi.

— Yangi O‘zbekistonimiz kun sayin ravnaq topmoqda, — dedi O‘zbekiston Qahramoni, faxriy o‘qituvchi Anor Mahmudova. — Bu boradagi o‘zgarishlar samarasi davlatimiz rahbarining jonkuyarligi sababli, deb bilaman. Yangi O‘zbekistonda ta‘lim sohasida ham keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Axir bularning boridan biz quvonmay, kim quvonson!

— Men bolalikdan o‘qituvchilarning jamiyatiga ta‘sirini nechog‘liq katta ekanini his etib voyaga yetganman, — dedi “Yangi O‘zbekiston” universiteti faxriy prezidenti Volfgang Anton Herrmann. — Otam o‘qituvchi bo‘lgan, u o‘quvchilarga juda ehtiyohtkorlik bilan munosabatda bo‘lish kerakligini ko‘p aytardi. O‘zbekistonda ta‘limga, yoshlarga qaratilayotgan e‘tibor tahsinga loyiq. O‘qitish tizimidagi islohotlar “Yangi O‘zbekiston” universiteti, Prezident maktablari misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

— Bir necha yillar avval fransiyalik hamkasblar bilan tanishib qolgandim, — dedi O‘zbekiston Qahramoni, faxriy o‘qituvchi Muhabbat Sharofova. — Ular yurtimizda o‘qituvchilar “O‘zbekiston Qahramoni” unvoniga sazovor bo‘lganidan juda hayratlanishgan edi. Men o‘qituvchilari qahramon darajasiga ko‘tarilgan shunday diyor yashayotganimdan behad faxrlanaman.

Tantanali kechada mamlakatimizdagi yangilanish jarayonlari, ustozlarni e‘zozlash, yoshlarga qaratilayotgan e‘tibor, tinch va osuda kunlarimizni tarannum etuvchi kuy-qo‘shiqlar yangradi.

Nazokat USMONOVA,
Murodxon XO‘JAYEV,
O‘za muxbirlari



MUNOSABAT

MARKAZIY OSIYO YOSHLARINI YAGONA MAKON RUHI VA BIRDAMLIK YO‘LI BIRLASHTIRADI

Prezidentimizning AQSHga amaliy tashrifi va BMT Bosh Assambleyasi sessiyasidagi nutqi nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyo yoshlari hayotida yangi sahifa ochishga qaratilgan ilg‘or tashabbus va takliflarga boy bo‘lgani bilan yanada muhim ahamiyat kasb etdi.

Muhayyo BAYBAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent
davlat pedagogika
universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori



Bunda davlatimiz rahbarining AQSHda yashayotgan va ishlayotgan bir guruh vatandoshlarimiz, xususan, “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiatlari bilan uchrashuvi haqida to‘xtalish o‘rinli bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari ularga Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida so‘zlab berdi, mamlakatimiz modernizatsiyasiga ko‘maklashishda vatandoshlarimizda ulkan salohiyat borligiga e‘tibor qaratdi.

Taraqqiyot strategiyasida erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali nu-fuzli xorijiy oliygo‘hlariga o‘qishga yuborish ko‘lamini 2 barobar oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o‘qitish belgilangan.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, jamg‘arma 2018-yildan buyon 1781 stipendiatning 40 ga yaqin davlatdagi 280 dan ziyod universitetda tahsil olishi, ilmiy markazlar va nufuzli akademik dargohlarda tajriba o‘rtirishini tashkil etib kelmoqda. Bugun xorijiy davlatlarning nufuzli universitetlarida 500 nafardan ziyod stipendiatimiz zamonaviy bilimlarni egallamoqda.

Xorijga ta‘lim olish uchun yuboriladigan yoshlar va mutaxassislar soni yildan-yilga oshirilib, 2026-yilda 700 nafargacha yetkazish rejalashtirilgan.

Bunda stipendiatlarning ijtimoiy mansublik darajasiga ham e‘tibor qaratish kerak bo‘ladi. Chunki ko‘pchilikda “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali kimlar chet elga o‘qishga

likni kuchaytirish maqsadida yaqinda mintaqamiz davlatlari tomonidan yoshlar siyosatining umumiy yo‘nalishlari haqida bitim imzolanganini ma‘lum qilindi.

Bundan anglashiladiki, Markaziy Osiyo davlatlari o‘z kelajagi uchun jiddiy qayg‘urmoqda. Bugungi tahlikali va shiddatli davrda yosh avlodning hamjihatlik va o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanishni maqsad qilgan.

Shuningdek, davlatimiz rahbari dunyo minbarida turib, mintaqamiz yoshlariga doir tashabbuslarni ham ilgari surdi. BMT huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etish, uning doirasida “Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi — 2030” dasturini ishlab chiqish tashabbusi qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Prezidentimiz bundan oldinroq, aniqrog‘i, joriy yil 14-sentabr kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Dushanbe shahrida o‘tkazilgan beshinchi maslahat uchrashuvidagi nutqida ham mintaqa yoshlariga doir dolzarb takliflarni ilgari surgan edi.

Ulardan biri — mamlakatlarimizdagi iqtidorli yoshlar uchun ilm-fan va ta‘lim sohasida Markaziy Osiyo mintaqasidan yetishib chiqqan Xorazmiy, Forobiy, Jomiy, Maxtumquli, Chingiz Aytmatov kabi buyuk mutafakkirlar, alloma va faylasuflar nomidagi mintaqaviy grant va stipendiyalar ta‘sis etish tashabbusi.

Bu xayrli tashabbus bugun yagona makon va birdamlik ruhi bilan birlashayotgan mintaqamiz xalqlarining asriy orzularini ro‘yobga chiqarishda muhim qadam bo‘ladi, deyishga to‘la asoslarimiz bor. Chunki Markaziy Osiyo davlatlari qadimdan taqdiri va tarixi bir zamin. Bu zamindan yetishib chiqqan allomalar dunyo sivilizatsiyasiga begiyoys hissa qo‘shgan. Bugungi avlodlarimiz tomlaridagi esa ulug‘ ajdodlarimizning qoni jo‘shib turibdi. Ular nomidagi mintaqaviy grant va stipendiyalar ta‘sis etilishi esa ota-bobolarimiz bilan faxrlanish va ularga munosib izdosh bo‘lish hissini chandon oshirishiga shubha yo‘q.





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz.uz_news

1-OKTABR —

O'qituvchi va murabbiylar kuni

Akademik degan yuksak darajaga erishish — bu, albatta, oson emas. Bunday baxt har kimga ham nasib qilavermaydi. Akademiklar millatning faxri, g'ururi, xalqning yuzi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Ko'zlardagi nurlar, DILLARDAGI SURUR SAODATI

Har safar ustoz akademik Nazar Yo'ldoshevich To'rayevning hayoti va mehnat faoliyatini o'ylaganimda ilm-fanning murakkab yo'lini bosib o'tish, unda katta muvaffaqiyatlarga erishish insondan qanchalar chuqur bilim, iroda va intilish talab etishini tasavvur etishga harakat qilaman. Yillar osha yadroning fizikaviy xossasini, ya'ni uning cheksiz va adoqsiz qirralarini tinmay o'rganish bir allomaga xos odatiy holatni yoki jasorat? Aytish mumkin, oltin besh yil ilm-fan va ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatish — qahramonlikning o'zi! Domla to'qsonni qoralayapti. Qo'lida hasa emas, ijod sari undovchi oltin qalam, hamon izlanishda.

Nazar To'rayevning umumiy mehnat staji 70 yildan oshdi. U fizika-matematika fanlari doktori (1980), professor (1982), fan arbobi (1988), O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (2000), uzluksiz ravishda 1982-yildan 2000-yilgacha Termiz davlat universitetining rektori vazifasini bajardi.

Shogirdlari bilan sohada birinchi bo'lib fanning yangi modeli — innovatsion texnologiyalarga asoslangan nazariyani ishlab chiqdi, bu esa keyinchalik fizika fanining "To'rayev effektlari" nomi bilan yangi yo'nalishi sifatida milliy fanimizga kashfiyot bo'lib kirdi. Bu effektlar asosida olimning ilmiy rahbarligida 15 yilga yaqin "To'rayev simpoziumi" nomli anjumanlar o'tkazib kelindi.

Ta'kidlash joizki, XX asr oxirlari va XXI asr boshlarida O'zbekistonning fandagi ilmiy salohiyatini yuksaltirish borasida bir qator mintaqaviy muammolar fizikaviy usul-



“UNING RAHBARLIGIDA 8 FAN DOKTORI, 20 GA YAQIN FAN NOMZODI TAYYORLANDI. 1992-YILDAN 2013-YILGACHA FANLAR AKADEMIYASI YADRO FIZIKASI VA ELEKTRONIKA INSTITUTLARI QOSHIDAGI IXTISOSLASHTIRGAN ILMIY KENGASH A'ZOSI, 2009-2013-YILLARDA ESA MAZKUR KENGASH RAISI LAVOZIMIDA ISHLADI.

lar asosida keng tatbiq etildi. Jumladan, paxta, ayniqsa, ipak paxtaning hosildorligi, sifatligi va tepzisharligiga lazer nurlarining ta'siri kabi mintaqaviy muammolar batafsil o'rganildi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning "Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq", deb aytgan fikrlarini biz haqli ravishda hozirgi paytda ham mamlakatning paxtachilik sohasida To'rayev kashfiyoti — lazer nurlari ta'siridan oqilona tarzda foydalanib kelinaotganidan ham ko'rishimiz mumkin.

Olimning fizikaviy elektronika sohasidagi mintaqaviy muammolari ilmiy asoslashga qaratilgan 300 dan ortiq nazariy maqolasi chop etilgan. Ulardan 15 tasi jahon va 100 dan ortig'i sobiq SSSR va MDH davlatlari jurnallarida bosilgan. Ilmiy natijalari asosida 7 ta monografiya va o'quv qo'llanmalari chop etilgan. Chunonchi, "Atomic collisions on Solid Surfaces" monografiyasi North-Holland nashriyotida 1993-yilda bosmadan chiqdi va ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etildi.

Uning rahbarligida 8 fan doktori, 20 ga yaqin fan nomzodi tayyorlandi. 1992-yildan 2013-yilgacha Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi va Elektronika institutlari qoshidagi ixtisoslashtirish ilmiy kengash a'zosi, 2009-2013-yillarda esa mazkur Kengash raisi lavozimida ishladi.

Akademik Nazar To'rayev o'z umrini ilm — fan — ta'lim yo'lida sarflab, yurt duosi va olqishini olib yashayotgan inson. Ta'lim sohasida aniq va tabiiy fanlarni chuqur o'qitishni takomillashtirish bugungi yuksak texnikaviy taraqqiyot davrining asosiy talabidir. Ayniqsa, o'tgan yetti yillikda bu boradagi vazifalar aniq belgilab berilgani hech kimga sir emas. Yoshlarimizning shiddatkor zamon bilan hamohang qadam tashlashini ta'minlash va yurtimizning ilmiy-texnikaviy salohiyatini oshirishni ko'zlab maqsadli harakatlarni olib borilmoqda.

Ustoz bilan hamsuhbat bo'lgan odamning dunyoqarashi, fikrlash doirasi tinligi-shadi, bugungi kun nafasi, mamlakatimizda olib borilayotgan siyosat maqsadini, mazmunini chuqurroq anglaydi. Olimning ta'kidlashicha, hozirgi tezkor axborot-kommunikatsiya asrida aniq-tabiiy fanlar rivoji uchun mustahkam poydevor yaratadigan kadrlarga ehtiyoj har qachongidan kuchli.

Boisi, matematika, fizika, biologiya, kimyo, astronomiya sohalar yutuqlari har qanday jamiyat va davlatning fan-texnika, texnologik rivojlanishi negizini tashkil etadi. Shuningdek, tabiiy va aniq fanlarning issiqlik yadro fizikasi, astrofizika, geliomaterialshunoslik, biologiya, mikrobiologiya, kimyo va tabiiy birikmalar kimyosi, seysmologiya yo'nalishlarida va boshqa ko'plab sohalarida ixtiqbolli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Darhaqiqat, mamlakatimizda ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalar rivoji uchun katta imkoniyatlar eshigi ochilgan. Prezidentimiz keyingi yillarda taraqqiyot yo'limizning asoschisi sifatida yoshlarimizning aniq-tabiiy fanlarni egallashiga alohida ahamiyat bermoqda. Bu yo'lida davlat budjetidan katta mablag'lar sarflanyapti. O'zbekiston Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot institutlarida keyingi 2-3 yilda ilmining ushbu yo'nalishlari bo'yicha tayanch doktorantura hujjat topshirayotganlar soni ko'paygani fikrimiz ibotidir.

"Bizning qadimiy va mustahkam idizlarimiz bor. Bu — bizning tariximiz, qadriyat va an'analimiz, urf-odatlarimiz, milliy o'zligimizdir. Men ana shu teran idizlarimizda yurtini, millatni birlashtiradigan buyuk bir g'oyani ko'raman", degan edi O'zbekiston Prezidenti. Darhaqiqat, buyuk allomalarimiz Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Hakim Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Ali Qushchi kabi yuzlab qomusiy, ta'bir joiz bo'lsa, aniq-tabiiy fanlar kashfiyotchilarining dunyo tamaduniga qo'shgan beqiyos hissasi qalbmizga faxr bag'ishlaydi.

Toshmuhammad Qori-Niyoziy, Muhammad O'rozbayev, Habib Abdullayev, Ubay Oripov, Sodiq Azimov, Sa'di Sirojiddinov, Obid Sodiqov, Yahyo G'ulomov, Ibrohim Mo'minov, Rahima Aminova, Sobir Yunusov singari zotlar XX asr o'zbek fanida maktab yaratishdi. Bugungi kunda ularning an'anasini davom ettiruvchi munosib izdoshlar yetishib chiqmoqda. Yaqin kelajakda jahonning manaman degan olimlari bilan teng bahslashadigan yosh olimlarimiz safi kengayishiga shubha yo'q.

Albatta, buning uchun ishni maktab ta'limida aniq fanlarni pishiq-puxta o'qitishga e'tibor qaratishdan boshlash kerak. Bu masalada jahondagi ilg'or mamlakatlardan ko'p narsa o'rganish mumkin. Chunonchi, XXI asr — axborot, texnika va texnologiya asri ekan, g'oyalar almashinuvi borligini ham unutmasligimiz lozim. Shu bois, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi milliy dasturi-

ning asosiy vazifalaridan biri sifatida dunyodagi ilg'or texnologiyalarni egallashning bosh sharti — internet tizimi imkoniyatlari-dan unumli foydalanishga erishishni ta'minlashdir. Mamlakatimizdagi ko'plab maktablar, kasb-hunar maxsus o'quv yurtlarida bu yo'nalish ijrosi yetarlicha yo'lga qo'yilib, islohotlarning sifat bosqichini to'la amalga oshiradigan muhim omildir.

Dunyoda kechayotgan jarayonni ko'z oldimizga keltirsak, Hindiston kompyuterlarning yangi dasturlarini sotish borasida jadal ilg'arayotganini kuzatamiz. Yaponiya esa jahonda ishlab chiqarishning ko'plab yo'nalishlarini yaratgan bo'lsa-da, hamon o'zining yangi g'oyalarni chetga pullamoqda. Ana shunday "oltin sanoat" davrida o'zimizning ilg'or va ibratli, jahon talablari darajasidagi g'oyalarni, dunyoga olib chiqishga arzigulik modellarni bo'lishi kerak va bor ham!

Hozirgi paytda yangi texnologik usullar, texnikalar har 5-6 yilda, ba'zan undan ham tezroq muddatda "qariydi" va qisqa vaqtda yangilanib, tobora takomillashib bormoqda. Ularni faqat chetdan olib kelaverish, birinchidan, katta sarf-xarajat talab etsa, boshqa tomondan, kimlargadir qaramlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bugungi aloqalashtirish, avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish sohalaridagi yaratuvchanlik uchun ham aniq fanlarni yanada chuqur o'zlashtirish kerak. Oddiy qilib aytganda, kimyo va biologiya fanlari moddiy asos tayyorlasa, fizika yaratadi, matematika esa uni to'g'ri boshqarib, amalga oshiradi.

Og'riqli masalalardan biri aniq fanlar bo'yicha iqtidorli yoshlarning iqtisodiyot, moliya, huquqshunoslik kabi sohalariga o'zini urib ketayotganidir. To'g'ri, bozor iqtisodiyoti sharoiti va huquqiy jamiyat barpo etish davrida bu sohalariga qiziqish kuchayishi tabiiy hol. Lekin biz o'ta rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarilishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, fan-texnika tizimi kadrlari tayyorlashni jadal-lashtirishimiz kerak. Zero, mazkur fanlarni o'rganish faqat mutaxassis va olimlar uchungi-na zarurat bo'lmay, bunga barchada ma'lum darajada ehtiyoj mavjud. Masalan, elektr bilan kundalik hayotimizda doimo muomalada ekanimiz har birimizning fizika, matematika, elektronika, biologiya, kimyo fanlaridan ham xabardor bo'lishimizni talab etadi.

O'z-o'zidan ayonki, ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarida boshlang'ich fizika, matematika, biologiya fanlarini chuqur o'zlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu sohadagi bilimlar sanoat, qishloq xo'jaligining oddiy xodimi uchun ham suv va havodex zarur.

Aniq-tabiiy fanlarni eng avval umum-ta'lim maktablarida chuqur o'qitish, yetuk milliy kadrlar tayyorlash bugungi kun talabi ekanini kunday ravshan. Agar ayni shu fanlardan maktabda yetarli bilim egallanmasa, o'zita maxsus va oliy o'quv yurtlarida bu vazifani bajarish birmuncha qiyin kechadi. Zero, o'quvchi har qancha bilimli bo'lmasin, uning iqtidorini ro'yobga chiqarish o'qituvchining mahorati va bilimiga bog'liq...

Shu o'rinda, faxr va g'urur ila aytish joizki, ustoz Nazar To'rayev yuksak insoniy fazilatlari va keng qamrovli ilmiy salohiyati bilan mamlakatimiz va xorijiy davlatlarda katta hurmat qozongan. Uning ulkan xizmatlari munosib taqdirlanib, davlat va xalqaro mukofotlarga sazovor bo'lgan.

Ustozimiz oqila turmush o'trog'i Roza opamiz bilan qariyb 60 yilga yaqin mazmunli umr kechirib, olti farzandni tarbiyalab, jamiyat taraqqiyotining faol fuqarolari etib tarbiya qildi. Farzandlaridan biri fan doktori — nanotexnologiya sohasining yetuk mutaxassisi. Ikki nafari mas'ul vazifalarda ishlaydi, qolganlari tadbirkor. Har yakshanba ularning hovlisi kichik to'yxonaga aylanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Nevara-chevaralari og'ushida 90 yoshni qoralayotgan Nazar aka va Roza opaning quvonchi, ko'zlarida nur, dillaridagi surur har qanday kishida havas uyg'otadi.

"Vatan ravnaqi, millat kelajagiga hissa qo'shish hamisha fidoyilik va jonkuyarlik talab etadi. Bu ezgu maqsad yo'lidagi harakatlarni samarali kechishi uchun bor kuchimizni kelajak avlod tarbiyasiga bag'ishlamog'imiz kerak. Ana shundagi-na oldimizda turgan ulkan vazifa — Yangi O'zbekistonda barpo qilish yo'lidagi muvaffaqiyatlarimiz bardavom bo'ladi", deydi akademik Nazar To'rayev.

Yashin XO'JAYEV,
professor

Atrofni baland tepalik, uncha katta bo'lmagan tog'lar o'rab turgan bu ovulning qishi juda sovuq, yozi jazirama issiq. Buning ustiga, tez-tez ko'tariladigan chang-dovul aholining yashash sharoitini og'irlashtiradi. Ayniqsa, ichimlik suv muammosi ovuldagilarni biroz toliqtirgandi. To'g'ri, nasos stansiya haftada bir marta ichimlik suv kelib turishini ta'minlaydi, lekin bu suv faqat ichish va chorva mollarini sug'orishgagina yetadi.

HAYOTDAGI ENG MUVAFFAQIYATLI HODISA fidoyi o'qituvchidan ta'lim olishdir

Ammo ovul xalqi nihoyatda mehmon-do'st, bag'rikeng, kuy-qo'shiqni yaxshi ko'radi, biror tadbir ashulasiz, raqssiz o'tmaydi. Mahalliy aholining aksariyati qozoq va o'zbek. Chorvachilik rivojlangan ovulda ikki millat vakillari ahi-inoq, qudanda bo'lib yashab kelmoqda. Ruhiyati tetik, bir-biridan yaxshi gapini darig' tutmaydigan bu odamlar Shohidaga begona emas. U shu yerda yashaydigan uzoq qarindoshinikiga tez-tez kelar, odamlarning samiiyatidan ko'ngli to'lardi.

Shohida Arabova Buxoro viloyatining Peshku tumanida ulg'aydi. 2009-2013-yillarda Navoiy davlat pedagogika institutida tahsil oldi. Institutni tamomlagach, Peshku tumanidagi o'zi o'qigan 23-maktabda bolalarga ona tili va adabiyotdan dars bera boshladi. O'quvchilar qalbid adabiyotga, badiiy asarlarga mehr uyg'otishga harakat qildi. Shogirdlari respublika miqyosidagi turli tanlovlarda g'olib bo'ldi. Aksariyati oliy ta'lim muassasalariga

ustida ishlashiga xalal bermaydi. Bu yerda o'tgan yillar menga juda ko'p narsani o'rnatdi. Insonlarda bir-biriga mehr uyg'otish uchun adabiyotni o'rgatish kerak, degan xulosaga kelganman. Ovuldagi faoliyatim o'zinga ishonchni yanada oshirdi. Maqsad qo'yib, unga tinimsiz intilish ko'zlangan manzila olib borishga tajribamda guvoh bo'ldim. Boshqalardan yaxshiroq ishlasangiz, natija kutganingizdek bo'lishni anglab yetdim. Kimgadir insoniylikni o'rgatish uchun odam o'zi inson bo'lishi kerak. Birovga nimadir o'rgatish uchun o'zi ikki karra o'qiydi. Bolalar ruhiyatini tarbiyalash uchun o'zingizning ruhingiz pokiza bo'lishi, ularni shakllantirish uchun o'zingiz ham shakllangan bo'lishingiz lozim, — deydi Shohida Arabova. — Qishloq bolalari mehnatkash, qachon qaramang, biror yumush bilan band. Shunga qaramay, bo'sh vaqti ko'p. Bolalar vaqtini besamar o'tkazayotgani meni tashvishlantiradi. Shuning uchun har hafta ularga bita

Shundan keyin Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani Sarimoy mahallasida joylashgan 11-maktabga yo'llanma olganda xayolidan ne gaplar o'tmadi, deysiz. Axir hech qachon oilasidan uzoqda bo'lmagan. O'lis safarga otlanarkan, yengib o'tishi lozim bo'lgan to'siqlar ko'z oldidan bir-bir o'tdi. Yangi joyning tartib-tamoyili, odamlarning fe'l-atvori haqida o'ylar, begona joyga moslashish qiyin bo'lishini bilardi.

— Bu yerga kelgan kunim maktab direktori ilgari mahalla idorasi bo'lgan bino-ga joylashtirdi, — deydi Sardorbek. — Sharoitning hamingadarligi kayfiyatimga, ishlashimga ta'sir ko'rsatardi. Oradan uch-to'rt kun o'tgach, Nukus maskani mahallasi raisi Rejebov Jumayev mehmonga chaqirdi. Suhbat asnosida uyda yashashni taklif etdi. Men bu taklifni qabul qildim. Mana, ikki yildan beri shu xonadonda yashab kelyapman. Bu yerga kelayotganimga maktab jamoasi haqidagi fikrim notugal edi. Boshqa viloyatdan kelganim uchun qabul qilishmasligidan cho'chirdim. Lekin maktab jamoasi bilan ham tez do'stlashib, bir oila a'zolaridek bo'lib ketdik. Hozir jamoada o'z o'miga ega o'qituvchilardanman.

Malakali pedagog bolalarga kundalik hayotda har bir qadamida bilim zarurligi, u faqat oliy o'quv yurtiga kirish vositasi emas, balki hayoti davomida duch keladigan masalalarga yechim beruvchi yordamchi sifatida tasavvur uyg'otishga harakat qildi. Pedagogning vazifasi bolaning hafsalasizligiga yo'l qo'ymaslikdir, degan tamoyilga amal qildi. Bora-bora o'quvchilar u o'tadigan tarix va tarbiya faniga ishtiyoq bilan qatnashadigan bo'ldi. Zero, bilimga chanoq o'quvchilar ko'p, ularga oliy ma'lumotli, tajribaga ega pedagoglar juda zarur. Ta'lim berish sifatini yanada oshirish, vatanga, jamiyatga yetuk kadrlarni tayyorlash va vatanparvarlik ruhida kamol topishiga hissa qo'shish maqsadli insoniy yosh muallim yaxshi tushunadi. Shu sababmi, bor salohiyatini darsning sifatini va samarali tashkil etilishiga qaratadi.

Sardorbek va u kabi boshqa hududlardan kelib ishlayotgan fidoyi o'qituvchilarning say-harakati izsiz ketmadi. Maktab bitiruvchilarining oliy ta'limga kirish ko'sratkichi ortishi va boshqalar natijasida tez orada maktab "qizi" toifadan "yashil"ga o'tdi.

Nega pedagog bo'ldim? Chunki bu mening yo'lim, taqdirim, falsafam, — deydi Sardorbek Arabboyev. — O'qituvchilik kasbini tanlaganimdan hech qachon afsuslanmaganman. Ehtimol uydan, yaqinlarimdan uzoqda yashash oson bo'lmayotgandir, ammo boshlang'ich bilim olishga intilishi, ustozga ishonchi, orzu-umidlari doim mas'uliyatni his etishim, mehnat qilishimga turki beryapti. Ish davomida turli qiyinchiliklarga duch kelaman, biroq bolalar erishayotgan yutuqlar oldida bu murakkabliklar hech qanday ahamiyatga ega emas.

Prezidentimizning tegishli qaroriga binoan, o'lis va chekka hududda ishlayotgan pedagoglarni moddiy rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilgan. Sardorbek ham bu imtiyozdan foydalanadi. Davlatimiz rahbarining "O'lis hududlardagi budget tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 100 foiz, o'quvchisi fan olimpiadasida g'olib bo'lgani uchun direktor jam'ar-masidan 35 foiz ustama oladi.

O'qituvchi faqat maosh olish uchungi-na bu kasbni tanlamaydi. Bolalarga mehr qo'ygan, ishini yaxshi ko'rgan insongina o'qituvchi bo'la oladi. Fidoyi o'qituvchi qo'lida ta'lim olish esa hayotdagi eng muvaffaqiyatli hodisalardan biridir. Sardorbek ana shu tamoyilga og'ishmay amal qiladi.

Risolat MADIYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



talabalikka qabul qilindi. Bir qaraganda hammasi risoladagidek, Shohida ham kundan-kunga malakali pedagog sifatida shakllanayotgan edi. Ammo hayot bir tekis kechmaydi. Uning past-u balandliklari bor. Hayot sinovlari muallimani ham cheklab o'tmadi. Oiladagi yo'qotishlardan so'ng yolg'iz farzandini o'zi katta qilishga bel bog'ladi. Cheksiz o'ylarining bir burichida o'sha qadrdon ovul, maktab va yuzi quyoshdan qoraygan o'quvchilar turardi. Shu sababmi, o'qituvchilik qilish uchun ovulga o'tlanganida zarracha ikkilanmadi.

Muallimaga begona joyda ish boshlash oson bo'lmadi. Uchquduq tumanining o'lis Uzunquduq ovulidagi 6-maktab ta'lim sifati past o'quv muassasalariga qatoriga kirardi. Qozoq tilidagi ta'lim muassasasi bo'lgan maktabda o'zbek tili va adabiyoti fanidan dars berishga chog'langan Shohida ishini boshidan boshlashga to'g'ri keldi.

U 400-500 ga yaqin kishi yashaydigan bu aholi punktiga kelgan paytda ovul "Obod qishloq" Davlat dasturiga kiritilgan edi. O'tgan vaqtda hududda yangi maktab, bog'cha qurildi, mavjudlari ta'mirlandi. Yaratilgan sharoit, chetdan kelgan yangi muallima bolalarga yangi hayot bag'ishladi go'yo. Har bir dars no'anaviy tarzda, o'qitishning interfaol usullarini amaliyotga tatbiq etgan holda tashkil etildi. Bolalarda o'qishga, o'rganishga intilish, yangi muallimlarga katta ishonch va muhabbat ortib bordi.

"Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi", "Besh bolali yigitcha", "Qiz bolaga tosh otmang", "Dunyoning ishlari", "Shum bola", "Kichkina Shahzoda", "Oq so'yloq", "O'z sakkizga kirmagan kim bor?", "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Jadidlar" to'plamini bolalar katta qiziqish bilan o'qidi. Bu asarlar asosida adabiy kechalar tashkil etildi, aqliy shoir va yozuvchilarning tavallud sanasiga bag'ishlangan tadbirlarni o'quvchilar orziqib kutadigan bo'ldi.

— Ovul juda sokin, jalb qiladigan xususiyatlari kam, ammo bu o'qituvchining o'z

yangi kitob o'qitaman, yoshi, xarakteriga mos, xulqidagi muammolari bartaraf eta oladigan asarlar tanlashga harakat qilaman. Bu say-harakatlarim zoye ketmadi. "Besh tashabbus olimpiadasi"ning "Zukko kitobxon" tanlovida o'quvchilarim bilan viloyatda birinchi o'rinni egalladik.

O'qituvchiga hurmat-ehtirom jamiyatni o'zgartirishdan boshlanadi. Shu bois, aynan xalq ta'limi sohasidagi islohotlarni boshlashda qo'yilgan eng katta vazifa ham jamiyatda muallimlarning nufuzini oshirish bo'ldi. Pedagoglar mehnatiga qat' to'lash, moddiy rag'batlantirish, ijtimoiy himoya qilish borasidagi ishlar bugun har bir muallimning hayotida o'z ifodasini topyapti. Ayniqsa, o'lis hududlarga borib ishlayotgan yuqori malakali pedagoglar uchun ustamalar belgilangani ko'plab o'qituvchilar qatori qahramonimiz hayotida ham samarasini berdi.

U bugun mehnatlari huzurini ko'riyapti. O'qituvchi obro'si oshayotganiga, pedagoglarning o'z ustida ishlashi, bolalarga qo'shimcha dars berishi, daromad topishiga imkoniyat yaratilganiga guvoh bo'lib turibdi. Zotan, Shohida Arabova ham tegishli qarorlarga ko'ra, 30 va 50 foizli ustama oladi. Uning oylik maoshi bugun qariyb 1000 AQSH dollarini tashkil etmoqda. Bu esa ta'lim sohasi vakillarining jamiyatdagi o'rni va maqomi nechog'liq yuksalayotganiga yana bir dalildir.

Andijondan olis Xorazmga

Sardorbek Arabboyev Andijonning Marhamat tumanidan. 2015-yili Andijon davlat universitetini tamomlagach, tuman-dagi 32-maktabda o'qituvchilik qila boshladi. O'lis va chekka hududlarda faoliyat olib borayotgan pedagoglar mehnatini munosib rag'batlantirishga bo'lgan e'tibor Sardorbekning hayotida tub burilish yasadi. U mutasaddi tashkilotga chekka hududga borib ishlash istagini bildirdi.



Milliy estradada o'z uslubi, o'rni va ovozigaga xonanda, tabiatan qo'shiqlaridek vazmin inson, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Azim Mullaxonovning shu yil fevral oyida Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali drama teatriga direktor etib tayinlangani ko'pchilikni ajablantirdi. "Azim Mullaxonovning teatrga qanday aloqasi bor, qo'shiqchi odam u yerda nima qiladi?" deganlar ham bo'ldi.

SAN'AT



tabiyy. Qolaversa, musiqali teatrdagi ishlar ancha mashaqqatli. Sahnaga mikrofon qo'yilmaydi. Orkestr bilan jonli ijro bo'lishi, ovoz oxirgi qatordagi tomoshabingacha yetib borishi kerak. Har bir spektaklda kamida 5-6 ta ariya bo'lib, kerakli o'rinda xor ham qo'shiladi. Raqslardan foydalaniladi. Bularning hammasi jiddiy nazorat ostida bo'lishi lozim. Biroq otasi, onasi, akasining shu dargohda o'tgan yillari haqqi-hurmati, (otasi Aziz Mullaxonov, akasi Habibullo Mullaxonov ham teatrdagi ishlagan) shirin xotiralar kuchi bilan u ikkinchi uyiga keldi, unga mehri chandon ortdi. Onasining ruhi shod bo'lishi uchun ham astoydil ishga kirishdi.

Ustozlar haqida yangi spektakli

O'qituvchi va murabbiylar kuni — qutlug' sana arafasida Azim Mullaxonov ezgu bir ishga qo'l urdi.

— Bolaligimda sahnaga chiqib ketaverdim, — deydi suhbatdoshimiz kulgi aralash. — Birov yomon ko'z bilan qaramagan, haydamagan. Hatto sahna ortida o'ynab yurib, uxlab qolib, aktyorlarga xalal bergan paytlarim bo'lgan. Shu o'ynab yurish asnosida ham qulog'imga ularning so'zlari, qo'shiqlari singib, spektakllarga qiziqishim ortib borgan ekan, endi o'yolasam.

Texnikaga mehri bo'lakcha bo'lgan Azimjon 15 yoshida teatrga 38 so'm oylik bilan yarim stavkaga ovoz yozish muhandisi yordamchisi sifatida ishga olingan. Unga teatr orkestri dirijori Nabijon Xalilov ustozlik qilgan. Nabijon aka "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Gulsiyoh" kabi spektakllarda nay chalardi. Naylarini o'zi yasaydigan, hatto zargarlikni ham biladigan bu serqirra inson bilan Azim Mullaxonov bir necha yil orkestrda ishladi. Shu ma'noda, uni yaqindan bilganlar teatr rahbarligiga tavsiya qilishdi. Zero, musiqali drama teatr rahbari orkestrni ham yaxshi tushunishi, ariyalarini tahlil qila olishi maqsadga muvofiq.

260 kishilik jamoa bilan ishlash oson emasligini qahramonimiz yaxshi biladi va shuning uchun unda ikkilanish bo'lgani



Ma'rifat



YURAGIM TO'RIDA BU QUTLUG' DARGOH

yoxud teatrdagi tarbiyalangan Azim Mullaxonov

aytib o'tay. Ayni paytda yozuvchi Qo'chqor Norqobilning ustozlar haqidagi yangi pye-sasini sahnalashtiryapmiz. Fidoyi, jonkuyar o'qituvchilarning mashaqqatli mehnati aks etgan bu spektaklni, nasib qilsa, barcha maktablarga rejali namoyish qilib boramiz. Zero, o'quvchilarning teatrga muntazam borib turishi yo'lga qo'yildi. Shuning uchun teatr repertuarida o'quvchilar bo'lgan mavzularga ham e'tibor qaratyapmiz. Chunki bugungi yoshlarni adabiyot, teatr, musiqaga har qachongidan ko'proq qiziqtirish kerak.

Maktab o'quvchilarining cholg'ularni o'rganishiga sharoit yaratilgani ham bejizmas. "Endi bolalarimizning hammasi artist bo'lib ketadimi", degan noto'g'ri qarashlar paydo bo'ldi. Cholg'u chalish bilangina artist bo'lib qolmaydi-ku? Musiqani tushungan, san'atga yaqin kishi ezigulikka oshno bo'ladi. Eng muhimi, so'zning ma'nisini anglaydi. Bugun yoshlarni internetdan uzib qo'yolmaymiz, uni cheklab ham bo'lmaydi. Shuning uchun mana shu murakkab jarayonda ularning loq-qal nimani eshitish, nimani ko'rish kerakligini ajrata olishi ham katta yutuq bo'ladi.

Ijro qilgan aktyorlar-u, hayajonlangan men

Avqust oyida Ozarbayjonda bo'lib o'tgan O'zbekiston madaniyati kunlari doirasidagi tadbirlarni kuzata turib, yangi spektakllari bilan Muqimiy teatri yana bir karra ulug'langanidan quvondik. Azim Mullaxonov rahbarligida qanday spektakllar sahnalashtirilgani teatr muxlislariga qiziq, albatta.

— Avvaliga 1-2 ta spektakldagi orkestr ijrolarini tahlil qildim. Ariyalarning orkestrga mutanosibligini diqqat bilan ko'rib chiqishga to'g'ri keldi. Repertuari esa tomoshabingacha qiziq bo'lgan asarlar bilan boyitishga harakat qilypmiz. "Mashrab", "Halima", "Qaynana", "Otabek va Kumush" kabi spektakllar premyerasi bo'ldi. Spektakllarimiz soha mutasaddirlariga ma'qul bo'layotgani bizga kuch bag'ishlaydi.

Majid Shamxolov asari asosida sahnalashtirilgan "Qaynana" spektaklimizni ozarbayjonlar yuqori baholashdi. Artistlarimiz sahnada ekanida juda hayajonlangandim, to'g'risi. Chunki "Qaynana" ni biz, o'zbeklar maromiga yetkazib olingan film sifatida juda qadrlaymiz, haligacha sevim tomosha qilamiz. Shu ma'noda, ishqilib, bularga ham spektaklimiz yoqsin, degan o'yda turdim. Xayriyat, mehnatimiz samara berib, olqishlar, e'tiroflar bo'ldi. Spektakl ariyalarini o'z tillarida eshitgan do'stlarimiz "biz o'zbeklar bilan bir xalqmiz, san'atimiz,

yuragimiz, madaniyatimiz ham bir", deyishdi. "Otabek va Kumush" spektaklini ko'rganlar ham ikkala xalqning turmush tarzi, ruhiyatida mushtaraklik borligini ta'kidlad.

Yana bir jihatni aytishim kerakki, shu paytgacha teatr boshqa davlatlarga gastrol safarlarga borganda, orkestr ijrolaridan kamchilik topishardi. Ozarbayjonda orkestrga ham ijobiy baho berildi. Bu, albatta, musiqali teatr erishishi kerak bo'lgan birlamchi yutuq. Kumush ro'lda Marjona Abdurahmonova, Otabek siymosida Rasulxon Qodirxonovdek yosh aktyor va aktrisalr shakllanib kelayotgani o'zbek teatr san'atining yutug'i. Yoshlarimiz xorijda ilk bor rol o'ynana

aniq olishimiz lozim. Tarixiy jarayonlarni ham qiziqarli tarzda, yangicha ko'rsatish kerak bo'lyapti bugun. Yaxshi asarlarni izlayapmiz, imkon qadar xalqchil, yoshlarga tushunarli dramalarga qiziyapmiz.

To'g'ri, komediya ham bo'lishi kerak, faqat bema'nilikdan xoli bo'lsa. Masalan, "O'jarlar" spektaklida jamiyatimizdagi qator illatlar hajv bilan ochib berilgan. Mana shunday komedik asarlarni ko'paytirishimiz kerak. Hazil me'yordan oshib ketsa, bachkanalikka aylanadi. Eshitganda yoki ko'riganda odamni jubnushga keltirib yuboradigan kuch bo'lsa, bu chinakam san'at hisoblanadi. Hozirgi kunda odamning g'ashini



gan bo'lsalar-da, hayajonlarini tomoshabingacha ham ulasha olishdi. Qaynana obrazini gavdalantirgan aktrisa Muqaddas Sotvoldiyeva esa Ozarbayjon xalq artisti Nasiba Ziyalova ijod qilgan sahnada rol ijro etganidan baxtiyor. Shunday ekan, teatrlarning xalqaro munosabatlari rivojlanishi, hamkorlikda spektakllar sahnalashtirishga jiddiy e'tibor berilishi zarur. Bu borada Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri ko'plab yutuqlarga erishayotganini tan olish kerak. Ushbu teatr jamoasi folklorona qizishlar orqali fransiyaliklar olqishiga sazovor bo'lib keldi. Aslida, murakkab dekoratsiyalar ham bo'lmagan, fransuzlar milliylikni yaxshi qabul qilgan.

Nasib qilsa, mana shunday o'ziga xoslik bilan biz ham xalqaro hamkorlikni rivojlantiramiz. Milliy an'analarni saqlagan holda yangi talqinda ishlashni ko'zda tutganmiz, milliy orkestr bilan spektakllar yaratish niyatimiz bor. Zero, endi shunday yo'ldan borish kerakki, o'zbekcha ruhni, o'zimizning yo'lni

keltiradigan, zo'raki kulgiga urg'u berilayotgan holatlar ham ko'p. Bunday faoliyatning san'atga daxli yo'q, deb o'yayman. Erkin ijod ham ijodday bo'lsin, safsatabozlik, bachkanalik erkinlik deganimas-ku.

Bir so'z bilan aytganda, chegaradan o'tib ketmaslik zarur. Ayniqsa, teatrdagi. Umuman, san'atda bunday qilmasligimiz kerak, ota-bobolarimiz nihoyatda madaniyatni bo'lgan. Buni dramaturgiar, rejissyorlarimiz ham chuqur his qilib, asar yozishda, uni sahnalashtirishda millatning ertasini o'ylasa, shu maqsadda jon kuydirsa, nur ustiga nur bo'ladi.

Yangi mavsumga ajoyib sovg'a

Teatring 85-mavsumi har galgidan o'zigaicha, noan'anaviy tarzda ochildi. Odatdagidek rasmiy chiqishlardan so'ng "Halima" spektaklini tomosha qilib qaytamiz,

deb o'ylagan mehmonlar kutilmagan bir ochilishga guvoh bo'lishdi. "Yoshlik sog'inchi" deb nomlangan teatrlashtirilgan retro konsert dasturi ko'pchilikda iliq taassurot qoldirdi. Teatr tarixida bunaqa konsert dasturi tayyorlanmagani haqida gapirganlar bunday yangicha yondashuv 85-mavsumga munosib sovg'a bo'lganini aytishdi. Darhaqiqat, 20 ga yaqin musiqiy asar qatorida yangragan "Do'ppi tikdim", "Maftun bo'ldim", "Sartarosh" kabi qo'shiqlarni eshitgan tomoshabin, jaydaricha aytganda, maza qildi. Aynan "Maftuningman" filmidan parchalar tanlab olinganiga suhbatdoshimiz bunday izoh berdi:

— "Maftuningman" filmi jonajon teatrimiz tarixini yodga soladi. Chunki urush paytlari hamma yoqdan iqtidorli ijrochilar izlanganda, mana shu teatrga ham ko'plab munosiblar olib kelinib, ishda qolib ketgan. Shuning uchun konsert dasturimizni ham "Yoshlik sog'inchi" deb nomladik.

Uzoq kutilgan xushxabar

Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali drama teatri jamoasi bir necha yildan buyon bir xushxabarni kutib yashaydi, ishlaydi. Teatrga boshchilik qilgan rahbarlar amalga oshirmoqchi bo'lgan yagona istak — unga akademik teatr maqomi berilishi edi. Bu istak ro'yobi haqida Azim Mullaxonovdan eshitdik:

— Davlatimiz rahbari o'tkazadigan yig'ilishlarda qatnashishning o'zi qanchalar mas'uliyatli va hayajonli. Endi aynan sizga yuzlanib, bir taklif yoki fikr so'raganda yoki e'tirof etgandagi hayajonni tasavvur qilavering. Iyul oyi boshida saylovoldi uchrashuvlarining birida Prezidentimiz teatr fidoyilaridan Lutfixonim Sarimsoqova, Razzoq Hamroyev eng qiyin paytlarda SSSR xalq artisti unvoniga sazovor bo'lganini esladi. Shuningdek, Mahmudjon G'afurov, Tursunxon aya Ja'farovlar qatorida onamni alohida hurmat bilan tilga olganida ko'zimga yosh keldi. Davlatimiz rahbari "Mana shunday san'atkorlar o'tgani uchun ham Muqimiy teatriga akademik teatr maqomini bersak, nima deysizlar", deb qoldi kutilmaganda. Qarsaklar, olqishlar bo'ldi. Ikkinchi bor ko'zimga yosh keldiki, bu orzu onamga ham arzon bo'lgandi.

Bu xushxabar jamoada bayramga aylanib ketdi. Xodimlar hali ham o'sha kayfiyatda yuribdi. Nasib qilsa, teatrimizga akademik teatr maqomini berish haqidagi qarorni ko'plab teatr muxlislari ham qo'llab-quvvatlaydi.

Shu o'rinda yaqinda Zarkent ijod uyi-da bo'lib o'tgan "Nigoh" ijodiy seminarida teatrimiz erishgan yana bir yutuq bizni ruhlantirganini aytishim loyiq. Yosh dramaturglar, rejissor va rassomlar, ssenariynavilar, operatorlar tomonidan taqdim etilgan kinossenariy va sahna asarlari orasida teatr yo'nalishi bo'yicha skakizta asar ishtirok etdi. Ular orasida teatrimiz bosh rejissori Doston Haqberdiyev, bosh rassom Jaloliddin Rahimov hamda dramaturg Uchun O'sarov uchligida shifokorlar faoliyatiga bag'ishlab ishlangan "Nurli yo'l" musiqali dramasi birinchi o'rinda loyiq topildi. Ushbu asarning davlat buyurtmasi asosida bizning teatrdagi sahnalashtirishlari esa jamoamizga yuksak ishonch, hurmatning amaldagi ko'rinishi, desak xato bo'lmaydi.

Munajat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



MILLAT FIDOYLARI

MUALLIMNING QADDI TIK, QADRI BALAND

Gulshan SATTOROVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining
Ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy tahdidlarni o'rganish bo'limi yetakchi mutaxassisi

O'n uch yoshli kenja o'g'lim:

— Onajon, islohot nima? — deb so'radi.

O'ylanib qoldim. Xayolimga kechagi kun keldi. Ta'limdan, sog'liqdan, inson qadridan ham paxta muhim bo'lgan davrlarda ishladik. Biz ta'limni paxta dalalariga almashib kelgan pedagoglarmiz. Mavsum boshlanganidan maktab o'quvchilari bilan ikki oy mobaynida bir kun ham dam olmasdan paxta terishga chiqqanimiz, yosh bolalarim bog'chada kechgacha qolib ketgani esimga tushdi. Yetmaganidek, o'tilmagan darslarimiz uchun kechalari uxlamay "konspekt" yozardik. Yillik, haftalik, kundalik ish yuklama jadvalarini to'ldirish, tahlil daftar, to'garak daftar, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan shug'ullanishi uchun alohida daftar, iqtidorli o'quvchilar

bilan ishlash daftar kabi hujjatlar tayyorlash, tinimsiz tekshiruvlar va majlislar bilan ish kunimiz o'tardi. Ko'chalarni tozalashga chiqqanimizda o'quvchilarni bizga hayratlanib qarashlarini ko'rib, uyalgan vaqtlarimiz ham bo'lgan.

Hozir esa ta'lim muassasalarida darslar to'liq o'tilyapti, to'xtab qolgani yo'q. Majburiy mehnatga chek qo'yilgan.

Prezidentimiz shu yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqida ham mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish, majburiy va bolalar mehnatiga barham berish borasida erishilgan natijalar haqida alohida ta'xalib o'tdi: "Bir asr mobaynida O'zbekistonda millionlab insonlar paxta terimiga majburiy ravishda jalb etib kelindi. Har yili sentabr oyidan dekabrgacha aholining asosiy qismi — o'qituvchi va shifokorlar, tadbirkorlar, ishchi va xizmatchilar, eng achinarlisi, maktab o'quvchilari va talabalar paxta terimiga safarbar qilinardi. Buning natijasida o'zbek paxtasiga boykotlar e'lon qilingan, mamlakat esa yillar davomida "qora ro'yxat"larga kiritilgan edi. Qat'iy irodamiz tufayli endi bularning barchasi o'tmishga



aylandi. Xalqimiz paxta qulligidan butkul ozod bo'ldi.

24 yil maktabda faoliyat yuritdim. Lekin so'nggi yillar o'qituvchi sifatida o'z qadrimni topdim. Sababi, o'qituvchi maqomi tiklandi. O'qituvchilarning mehnat sharoiti yaxshilanishi, muallimlarning oylik ish haqi oshirish-

gani, ustamalar belgilanishi, ayniqsa, ustozlarning ish jarayonidagi ortiqcha yozuv-chizuvlar kamaytirilishi kabi rag'bat hamda imkoniyatlar yaratildi. Bu so'nggi yillarda amalga oshirilgan birgina ta'lim sohasidagi islohotlardir. Davlatimiz rahbari shu yil 28-avgustda maktablarda ta'lim sifatini oshirish,

o'quvchi o'rmini ko'paytirish va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "O'qituvchilik kasbini e'zozlash, uning mehnatini qadrlash bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi", deb aytgan gaplari muallimlarni kasbdagi faxr, shijoat va mas'uliyatni yanada chuqur anglashga chaqirdi. Biz pedagoglar bunday oqilona islohotlarni qadrlaymiz.

Demak, islohot deyilganda, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini yoki ayrim tartib-qoidalarini qayta o'zgartirish, tubdan yangilash nazarda tutiladi. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, majburiy mehnatning, shu jumladan, bolalar mehnatining tugatilishi, bundan tashqari, yoshlarni qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi joriy etilishi, oliy ta'lim tizimida qabul kvotalarining oshirilishi, milliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalar filiallarining ochilishi, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi, inson huquqlari kafolatlarining kuchaytirilishi, Yangi O'zbekiston sari qadam qo'yganimiz — bularning barchasi bugungi kundagi keng ko'lami islohotlar natijasidir, — deb javob berdim o'g'limga.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.
43555 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05